

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

N.UMAROVA

ALISHER NAVOIY - BADIY SO'Z USTASI

Farg'ona-2010

Kitob Farg'ona davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Ma'sul muharrir:

SH.ISKANDAROVA,
filologiya fanlari doktori,
professor.

Taqrizchilar:

M.Mirtojiyev,
filologiya fanlari doktori,
professor.

G.ROZIQOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.

Mazkur o'quv qo'llanmasida Alisher Navoiyning badiiy tildan foydalanish mahorati, shoir asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Zero, o'zbek adabiy tili tarixini Navoiy asarlari misolida o'qitish o'zbek tili leksikasining ifoda imkoniyatlari naqadar keng ekanligini ko'rsatib beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, aspirantlar, kollej hamda litsey o'quvchilari, shuningdek, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

SO'Z BOSHI

Buyuk shoir Alisher Navoiy hazratlari so'zga jon ato etib, mohir g'avvos singari tafakkur ummonidan so'z deb atalmish go'zal duru javohirlarni yig'ib, bu go'zalliklardan she'riyat shaydolarini, adabiyot ixlosmandlarini hanuz bahramand qilib kelmoqda. Navoiyning buyuk xizmatlari soyasida XV asrdagi turkiy adabiy tilning leksik boyliklari va uslubiy imkoniyatlari yanada ortdi.

Sharq badiiy san'atlarining lisoniy tahliliga bag'ishlangan sohalarda tilshunoslikda endi o'rganilmoqda. Ma'lumki, adabiyot darslarida mumtoz she'riy san'at namunalari asosan Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu o'rinda adib Maqsud Shayxzodaning "Alisher Navoiy asarlari olijanob g'oyalar xazinasi bo'lganidek, she'riy san'atlarning bitmas-tuganmas konidir", – deb aytgan fikrlarini eslash kifoya. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida buyuk shoir dahosi haqidagi ta'riflari esa bu boradagi tadqiqotlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi: "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs"¹.

Badiiy til belgilangan qonun-qoida va normalarga bo'ysundirilgan adabiy tildan o'zining emotsional-ekspressivligi, so'zlarning semantik serqirraligi, tasviriy vositalar yordamidagi obrazlilik ko'lami kabi bir qator o'ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi. O'zbek tilshunosligida boy tadqiqotlar manbai sanalmish badiiy nutq hali-hanuz kam o'rganilgan sohalardan hisoblanadi. Badiiy matn tadqiqida til birliklarining ma'no va qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish, so'z san'atkorlarining o'z asarlarida lisoniy birliklardan foydalana olish mahoratini tadqiq etish muammolari hozirgi davr tilshunoslari tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalar qatoridan o'rin olgan.

Bugungi kunda ham mumtoz asarlar tili, ayniqsa, Navoiy asarlari tilini, jumladan leksikasini o'rganish, umuman, o'zbek tili tarixiy leksikologiyasini keng miqyosda tadqiq etish dolzarb masalaligicha qolmoqda.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: «Ma'naviyat», 2008. 47-bet.

O'zbek adabiy tili tarixini Alisher Navoiy asarlari misolida o'qitish, avvalo, badiiy so'z qudratini, shoirning so'z qo'llash uslubini, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini o'rganish, qolaversa, ushbu vositalarning she'riy matni shakllantirishdagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishni taqozo qiladi. Ana shu maqsadda qo'llanmada Navoiy g'azallarida ifodalangan rang tushunchali lisoniy birliklar va ularning ramziy ma'nolari, libos arxisemali leksemalar, shuningdek, xalq maqollari va iboralari, mumtoz she'riy san'atlar, jumladan, tazod (antiteza), laff va nashr, kitobot san'atini lingvopoetik tadqiq etishga e'tibor qaratilgan. Shoirning badiiy tildan foydalanish imkoniyatlari, Navoiy asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari o'rganilgan.

Mazkur qo'llanma talabalarning, yosh tadqiqotchilarning o'zbek tili tarixi fani va Navoiy asarlari tilini, qolaversa, badiiy tasvir vositalarini chuqur o'rganib, uni o'zlashtirishlari, undan amaliyotda, dars o'tish jarayonlarida foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

ALISHER NAVOIY – BADIY SO‘Z USTASI

O‘zbek adabiyoti va adabiy tili so‘nggi besh asr davomida Alisher Navoiyning adabiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg‘or an‘analarini davom ettirdi. O‘zbek adabiyotining deyarli barcha namoyandalari Navoiy asarlarini o‘qib tarbiya topdi va ulg‘aydi. Navoiy asarlaridan xalq o‘rtasida eng ko‘p tarqalgani va eng ko‘p o‘qilgani ham uning devonlari bo‘lgan. Navoiydek ulug‘ san‘atkor tomonidan yaratilgan va “Xazoyinul-maoniy” devonidan o‘rin olgan 44900 misra atrofidagi lirik she‘rlar dunyo adabiyoti tarixida misli ko‘rilmagan darajada ulkan xazinadir. Navoiy “Chor devon”da boshqa asarlarida uchramaydigan, o‘z davrining jonli tilidan olingan, xalqqa yaqin bo‘lgan so‘z va iboralarni qo‘llagan. “Xazoyinul-maoniy” kulliyotida jamlangan lirik she‘rlarni o‘rganish, nafaqat ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki shoirning dunyoqarashi, badiiy mahorati va til takomilining tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Shoirning quyidagi ruboiysi fikrimizning yaqqol dalilidir:

Bu bahrki, ganjlar makoni dedilar,

Har qatrasin obi zindagoni dedilar.

Shah maxzani ta‘bidin nishoni dedilar,

Kim oni “Xazoyinul-maoniy” dedilar (G‘S,14)²

Navoiy she‘riyatining har bir misrasi o‘zining betakror badiiy uslubi, tasviriy ifodalarga boyligi bilan kitobxon shuuriga singib ketadi. Buning yagona sababi- shoir o‘z she‘rlarida badiiy san‘atning turli xil ko‘rinishlaridan samarali foydalanganligida. Ma‘lumki, she‘riy san‘atlar badiiy asarda berilgan g‘oyalarning ta‘sirchanroq ifodalanishiga, badiiy timsollarning yorqinroq g‘avdalantirilishiga, misra va baytlarning lafziy nazokati va jozibadorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. SHuning uchun ham Alisher Navoiy lirikasida sharq adabiyotiga xos barcha ma‘naviy va lafziy san‘atlarning eng go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Navoiy o‘z she‘rlarida *mubolag‘a, tashbih, tamsil, husni ta‘lil, tajohuli orif, tashxis, intoq, talmih, laff va*

² Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I т. Фаройибус-сиғар. –Т.: ФАН, 1959.

nashr, istiora, irsoli masal, iqtibos, muammo kabi ma'naviy san'atlar; *tajnis, iyhom, tanosub, tazod, ishtiyoq, ta'dil, kitobat* singari ko'plab lafziy san'atlarni qo'llagan.

Alisher Navoiyning badiiy mahorati shunda ko'rinadiki, birgina baytning o'zida she'riy san'atning xilma-xil ko'rinishlarini qo'llay olgan. Quyidagi baytda shoir ma'shuqa go'zalligini tasvirlash uchun **tanosub, istiora, laff va nashr** singari badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin:

La'l uzra xol-u xatki, yuzung ko'zgusidadur,

To'tig'a hindu o'rgatadur so'z shakar bila (G'S, 546)

baytdan o'rin olgan *la'l (lab), xol, xat (lab ustidagi mayin mo'y)* va *yuz* so'zlari ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaganligi uchun o'zaro **tanosub**³; shuningdek, *la'l* so'zi *lab* ma'nosida qo'llangan **istiora**⁴ sanaladi. *La'l, xol, xat*, so'zlari **laff** bo'lsa, ular haqidagi hukm-**nashr** esa keyingi misrada joylashgan *to'ti, hindu va shakar* so'zlari orqali yuzaga chiqadi. Laff va nashr san'ati asosida tashbih yotadi: **lab to'tiga, xol hinduga, xat shakarga** o'xshatiladi. Ana shu she'riy san'atlar yordamida ma'shuqa go'zalligi ta'rif-tavsif etiladi. Alisher Navoiy badiiy timsollar yaratishda *xat* va *xol* so'zlariga ko'p marta murojaat qiladi Chunonchi:

Xating bosh chekkali xoling ko'runmas,

Ko'kardi chun ekin, gum bo'ldi dona (G'S, 554)

baytida ham *xat va ekin, xol va dona* juftliklari **laff va nashr**⁵ san'ati uchun asos bo'lgan. Shuningdek, baytda *Ko'kardi chun ekin, gum bo'ldi dona* misrasida “*Ekin ko'karganligi uchun don yo'qoldi*” mazmuni orqali **tamsil**⁶ san'ati ham berilgan.

Navoiy lirikasida **tanosub** san'atining ham xilma-xil ifodalarini kuzatishimiz mumkin.

Ko'rdum ul but qoshlari kofirmen, ar islomi bor,

Ka'ba ahli qilmasa bu nav mehrob orzu (G'S, 527)

³ Tanosub –she'r baytlarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati. **Qarang: Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.T.: “Sharq”, 1998, 80-b.**

⁴ Istiora - arabcha so'z bo'lib, “biron narsani omonatga olmoq” degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uning haqiqiy na'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati. **O'sha kitob, 53-bet.**

⁵ Laff va nashr – “yig'ish va yoyish” ma'nosini ifodalovchi ushbu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilish san'ati. **O'sha kitob, 42-b.**

⁶ Tamsil–“misol keltirish” ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirish san'ati. **O'sha kitob, 24-b.**

baytida diniy tushunchalarni anglatuvchi *but, kofir; islom, ka'ba, mehrob* so'zlari vositasida lirik qahramon ruhiy kechinmalaridagi ziddiyat ochib berilgan va tanosub san'ati yaratilgan. Shuningdek, tanosub san'ati tazod san'atini qo'llash uchun asos bo'lgan. Yana bir baytda esa *dasht, samum, quyun* leksik birliklari o'zaro tanosub bo'lib, hijron vodiysida sarsari kezgan oshiq holatini yorqin ifoda etadi:

Ishq dashtining samumidin gumon etgay quyun,

Vodiyi hijron aro ko'rgan bu sargardon o'tin (G'S, 521)

Quyidagi baytda ta'lim sohasiga oid so'zlar vositasida yaratilgan tanosub san'atining yana bir go'zal namunasini ko'rish mumkin:

Fasonam yozg'uvchi, bilkim bitik uzra sochar kuldek,

Kuyub sochilg'usi kog'azga ilgingdin qalam bir kun (G'S, 519)

Mazkur baytda *yo'z'uvchi, bitik, kog'az, qalam* so'zlari asosida yuzaga chiqqan tanosub san'ati orqali oshiqlikni o'ziga qismat qilib olgan, mahbuba firoqida umidsizlikka tushgan lirik qahramonning fasona yozuvchisiga murojaati aks ettirilgan.

Navoiy lirik she'rlarida xalq maqollari va matallaridan ham samarali foydalangan. She'rda xalq maqollarini keltirishga asoslangan she'riy san'at **irsoli masal** deyiladi. She'r misralarida xalq maqollarini qo'llash orqali ifodalanayotgan fikrning ta'sirchanligini oshirishga erishilgan, uslubning sodda va ravon bo'lishi ta'minlangan.

Ko'ngilni tuz, tilosang foyiz o'lsa tuz ma'ni,

Nedinki, egri esa egri ko'rguzur ko'zgu (G'S, 538)

baytida hozirgi tilimizda tez-tez qo'llanadigan "*Yuzing qiyshiq bo'lsa oynadan o'pkalama*" xalq maqoli ikkinchi misra mazmuniga singdirilgan va irsoli masal san'ati yuzaga chiqqan.

Alisher Navoiy o'z she'rlarida ona tilimizning so'z boyliklaridan mohirona foydalana bilgan: zid ma'noli so'zlar, o'zakdosh so'zlar va ma'nodosh so'zlar vositasida lafziy san'atning betakror namunalarini yaratgan. Shundan bo'lsa kerak, Navoiy lirikasi o'zining rango-rang leksik qatlamlari bilan tilimizning boy imkoniyatlarini asrlar davomida ko'z-ko'z qilib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimizda zid ma'noli so'zlar vositasida ham ta'sirchan badiiy timsollar yaratilgan. Quyidagi

misolda *musulmon*, *kofir* singari diniy tushunchalarni o'zaro zidlash orqali shoir tazod san'atini yaratadi va uning vositasida oshiq ruhiyatidagi norozilik kayfiyatlarini, ma'shuqa vaslidan umidsizlikni ham ifodalaydi:

Jafosi tirguzur elni-yu men bu ayshdin mahrum,

Musulmonlar bilingkim, o'lgum ul kofir jafosidin (G'S, 520)

Navoiy lirikasida ko'p bor murojaat qilingan lafziy san'atlarning yana bir ko'rinishi **ishtiyoq** san'atidir. Ishtiyoq san'ati she'r misralarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash orqali yuzaga chiqadi.

Hojatingni elga arz etmakka hojat bo'lmasun,

Xush chiqishsang lahzai bu zori hojatmand ila (G'S,557)

baytidagi *hojatingni, hojat, hojatmand* o'zakdosh so'zlari ishtiyoq san'ati uchun asos bo'lgan.

Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan badiiy timsol yaratish vositalari ichida sinonim so'zlar ham alohida o'rin tutadi. Chunonchi:

Xasta ko'nglum og'zi zaxmi paxtalig' paykonidin,

Bor aningdekkim momuq birla ichar bemor suv (G'S, 533)

baytida qo'llangan *xasta-bemor, paxta-momuq* sinonimik qatorlari fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, birinchi misrada ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada *Bor aningdekkim momuq birla ichar bemor suv* shaklidagi *bemor og'ziga paxta bilan suv tomizilishi* singari hayotiy hodisa tamsil sifatida keltirilgan. "Xazoyinul-maoniy" kulliyoti tarkibidagi she'rlarda qo'llangan badiiy tasvir vositalari ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy ijodi badiiyatini o'rganish orqali shoirning beqiyos iste'dod sohibi, badiiy so'z ustasi sifatida tilimiz boyliklaridan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, u yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratiladi. Bu jihatdan Navoiy hazratlarining benazirligiga shubha yo'q.

NAVOIY SHE'RIYATIDA RANG SEMEMASINI IFODALOVCHI

LEKSIK BIRLIKLAR

Alisher Navoiy ijodi badiiyati haqida so'z borganda, avvalo, shoirning badiiy so'zga munosabati, so'z qo'llash mahorati haqida fikr yuritish joiz bo'ladi. Chunki Navoiy buyuk shoir sifatida so'zga jon ato etib, mohir g'avvos singari tafakkur ummonidan so'z deb atalmish go'zal dur-u javohirlarni yig'ib, bu go'zalliklardan she'riyat shaydolarini, adabiyot ixlosmandlarini hanuz bahramand qilib kelmoqda. Navoiyning buyuk xizmatlari soyasida XV asrdagi turkiy adabiy tilning leksik boyliklari va uslubiy imkoniyatlari yanada ortdi. Alisher Navoiy tilining so'z boyligi 26 mingdan ortiq bo'lib, shoir asarlari asosida tuzilgan izohli lug'atlarda barcha sohaga oid so'zlarni uchratish mumkin.

1972 yilda tuzilgan I jildlik "Navoiy asarlari lug'ati"da shoir asarlarida qo'llangan 100dan ortiq rang-tus bildiruvchi sifatlarning ma'nosi izohlangan.

Badiiy adabiyotda fikrning ta'sirchanligini oshirishda, so'zlarning uslubiy bo'yoqdorligiga erishishda sifatlarning o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, ranglar orqali ifoda topgan sifatlashlar Navoiy she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan biri desak, aslo yanglishmaymiz. Bu usul shoir she'riyatida o'zining ma'lum qonuniyatiga ega. Navoiy bu usuldan lirik qahramonning xilma-xil kechinmalarini tasvirlashda unumli foydalangan. *Oshiqning ko'z yoshlari ko'zning qizargan tomirlarini oqartira olmaydi, go'yo dengiz to'lqinlari qizil marjonni oqartira olmaganidek*, mazmunidagi go'zal tashbehtar ifodalangan misralar fikrimizning yaqqol dalilidir:

Orimas ashkim bila ko'zning qizorg'on raglari,

Bahr mavjidan oqargudek emas marjon qizil (BV)⁷

Hammaga ma'lumki, Alisher Navoiy o'z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaragan, uni cheksiz faxr bilan sevgan. Shunday bo'lsa-da, shoirning boshqa tillarga ham muhabbati aslo kam bo'lmagan: fors-tojik hamda arab tillari grammatikasini va lug'at boyligini juda yaxshi bilgan. Shuning uchun ham Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida berilgan rang-tus bildiruvchi leksik birliklarning 26 tasi arab tiliga, 67 tasi fors tiliga mansub, 9 tasi arabcha-forscha, 9 tasi turkiy tilga tegishlidir. Navoiy o'z

⁷ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. III т. Бадоеул-васат. –Т., 1963

asarlarda fors va arab tili leksik birliklari bilan birga, ona tilimizda mavjud bo'lgan *yashil, sarig', oq, qizil, qora, ko'k, alocha, ko'kbo'z, charda, qirmiz, qonlig', ko'k* singari leksemalarni ham qo'llagan:

Bahor sensiz o'lurtub manga ajab do'zax,

Qizil gul anda o'tu oq shugufalardur yax (G'S)⁸

Lug'atda keltirilgan rang-tus leksemalari *oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, sapsar, kulrang, ola-bula, qora* singari umumlashtiruvchi sememalari bilan muayyan paradigmalar hosil qiladi. "Qizil" sememasi 31ta, "oq" tushunchasi 10ta, "sariq" integral semasi 14 ta, yashil rang 10 ta, ko'k rang tushunchasi 11 ta, "qora" sememasi 16 ta, "ola-bula" integral semasi 6 ta, "sapsar" tushunchasi 5 ta leksemalar orqali ifodalangan. Buni quyidagi jadval orqali ko'rsatish mumkin:

№	Ranglar semantikasi	Rang nomlarining paradigmalari
1	<i>qizil</i>	<i>arg'avongun, arg'avoniy, ahmar, baqam, gulrang, gulfom, gulgun, gulguna, gulgunpo'sh, gulgaz, gul-gul, gulnor, gulnoriy, yoqutiy, yoqutfom, la'l, la'lgun, la'lfom, lolavor, ol, otashin, rummoniy, surx, xuniy, shafaqvash, shafaqgun, shingarf, shingarfiy, qirmiz, qonlig', humro;</i>
2	<i>oq</i>	<i>abyaz, bayoz, bayzo, bayzogun, kofur, kofurgun, kofuriy, kofurkirdor, safid, sahargun;</i>
3	<i>sariq</i>	<i>asfar, zarvash, zard, zarpaykar, zarrina rang, za'faroniy, kohiy, lemui, noranj, noranjiy, sandarus, safro, xazoniy, qahrabovash;</i>
4	<i>yashil</i>	<i>axzarvash, axzargun, axzariy, zumrad, zangor, zumurradgun, sabzagun, sabzo, xazro, to'tagiy;</i>
5	<i>ko'k</i>	<i>azraq, ko'kbo'z, lojuvard, lojuvardiy, miyno, moviy, nil, nilrang, niliy, nilufariy, obgun;</i>
6	<i>qora</i>	<i>adham, zulmatfishon, zulmoniy, mushk, mushkfom, obnus, savod, siyoh, siyahtob, siyahfom, tiyra, shabgun, shabrang, qora, qiyr, qiyrgun;</i>
7	<i>sapsar</i>	<i>binafsh, binafsha, binafshfom, nofarmon, savsani;</i>
8	<i>ola-bula</i>	<i>ablaq, abrash, alocha, arqam, palangiy, pesa.</i>

⁸ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I т. Фаройибул-сиғар. –Т.: ФАН, 1959.

“*Ola-bula*” sememasi bilan birlashuvchi sifatlar birdan ortiq rang aralashmasini bildiruvchi sifatlardir. Bunday sifatlar tarkibida nechta rang ifodasi bo’lsa, shular yonma-yon, bir yuzada galma-gal qo’llanganligini ifoda etadi. Lug’atda ablaq va abrash⁹ so’zlarining ma’nosi quyidagicha izohlangan:

ABLAQ a. 1. Ola-bula, oq-qora tus; 2. Ola po’stin: *Sovug’ ohimdin o’lsang betahammul ko’zga keltur yuz Ki, anda ablaq etmishmen murattab tegrasi qunduz (NSH)*; 3. Junlari ola yo’lli ot, zebra: *Har ablaqki, raftor aro gom urub, Zamon ablaqki ko’z etarcha qolib (SI)*; Zamona ablaqi maj. Kecha-kunduz: *Zamona ablaqi yanglig’ xiromi, Yururda sharq to g’arb ikki gomi (FSH)*.

ABRASH a. 1. Qizil ola yoki qora ola tus; 2. Shu xildagi ot; **ko’k abrash** – juni ko’k xoldor ot: *Shahsuvorim chu qilur jilva minib ko’k abrash (NSH)*

Alisher Navoiy tomonidan qo’llangan ayrim rang-tus sifatlari ma’lum narsaga xos rangni bildiradi. Bunday sifatlarning qanday rang bildirishi so’z o’zagidan anglashilib turadi. Masalan, *binafsh, binafsha, binafshfom, nofarmon, savsani* kabi leksik birliklar “*sapsar*” sememasi orqali bir paradigma hosil qiladi.

Alisher Navoiy ijodida kamyob rang –tus sifatlarini ham uchratish mumkin. Ana shunday sifatlardan biri ***kulrang*** ma’nosini ifodalovchi birgina *xokistariy* leksemasidir.

Yuqorida keltirilgan sifatlar muayyan rang sememasini ifodalashiga ko’ra bir paradigma hosil qilsa ham, lekin paradigma a’zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi semaga ega bo’ladi. Masalan, ***gulgun*** – *gulrang, pushtirang*; ***gulguna*** – *qizil*, ***gulgaz*** – *ko’kimtir tovlanadigan qizil*; ***arg’avongun*** – *qizil*, ***yoqutiy*** – *qip-qizil*, ***lolavor*** – *loladay qizil*, ***otashin*** – *o’tday qizil*, ***rummoniy*** – *anor rang*, ***shingarfiy*** – *qizg’ish*:

*To’kti qon **gulgun** libosin kiygach u xo’blar shahi,*

*Qon to’kar ermish **qizil** to’n kiysa beshak shohlar (G’S)*

Ko’rinib turibdiki, ushbu ranglar qizillikning turli xil ko’rinishlari va darajasini ifodalaydi.

⁹ Навоий асарлари луғати. –Т.: Ғ.Ғулом. 1972, -23,-25-66.

Qora sememasini ifodalovchi quyidagi soʻzlar ham farqlovchi semasi bilan qora rangining turli ottenkalarini yuzaga chiqaradi: **adham** – qora, **zulmoniy** – qop-qora, **mushk** – tim qora, **shabgun** – qop-qora, **qiyrgun** – qora tusli, **obnus** – qora tusli. Masalan:

Charx motam qismati bermish manga yo ohdin

*Pardai **shabgun** bila yoymish meni uryonni dud (G'S)*

SHoir oq rangni ifodalash uchun quyidagi leksik birliklardan foydalangan: **abyaz** – oq, **bayzo** – oʻta oq, **bayzogun** – oq rangli, yaltiroq; **boʻz** – kulrangga moyil, **kofuriy** – oq rangli. Chunonchi:

*Nargis oltun jomining ollida **kofuriy** harir*

Pardai jonimdurur, marhun qadah polo emas. (G'S)

Alisher Navoiy sheʼriyatida qoʻllangan ranglar nafaqat farqlovchi semalariga koʻra, balki qaysi leksemalar bilan birikma hosil qilishi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, qizil rang va uning sinonimlarini olib koʻraylik.

“Gulgun” soʻzi ishlatilgan sheʼr koʻproq peyzaj lirikasi tusini oladi va shu tasvir orqali lirik qahramon, koʻpincha, hayotni sevib, undan zavqlanuvchi kishi sifatida namoyon boʻladi:

Yuzung shahidlari tufrogʻin sovurmish el,

*Bukim bulut koʻrunur koʻkta har taraf **gulgun**. (G'S, 514)*

“Otashin” soʻzi esa koʻproq ishq oʻti bilan bogʻliq tushunchalarni chaqiradi va lirik qahramon qalbidagi oʻt tugʻyonga kelib, uning alangasida oʻrtanayotgan oshiq sifatida gavdalanadi. Masalan:

Yuzung oʻtigʻa tutun zulfi muanbarmu ekin,

***Otashin** laʻling ul oʻt ichida axgarmu ekin?(G'S, 476)*

Tasvirda “qizil”, “lolagun” soʻzi qoʻllansa, albatta qon tushunchasi paydo boʻladi va gʻazalda “qon” yoki qon tushunchasini ifodalovchi soʻz keladi. Lirik qahramonning holati ham shunga mos holda namoyon boʻladi. CHunonchi:

Koʻzumda loladek ul yuz gʻarib erur qon yosh,

*Ki boʻlsa gul qizil, oʻlmas anga gulob **qizil**. (NSH)*

Ko'rinib turibdiki, Navoiy g'azallarida qo'llangan rang bildiruvchi sifatlarning har biri she'riy matnda mantiqiy jihatdan muayyan so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Buni "G'aroyibus-sig'ar" devonidan tanlab olingan misollar asosida tuzilgan quyidagi jadvaldan ham ko'rishimiz mumkin:

№	Aniqlovchi rang	Aniqlanmish ot	№	Aniqlovchi rang	Aniqlanmish ot
1	<i>axzar</i>	<i>xil'at</i>	18	<i>la'lgun</i>	<i>kirpik, may, yuzbarg</i>
2	<i>axmar</i>	<i>may</i>	19	<i>la'liy rang</i>	<i>lab</i>
3	<i>arg'uvoniy</i>	<i>to'n</i>	20	<i>limuyi</i>	<i>bo'rk</i>
4	<i>gulbun</i>	<i>bar</i>	21	<i>lojuvard</i>	<i>atlas</i>
5	<i>gulgul</i>	<i>libos, qon, harir, yuz</i>	22	<i>lolagun</i>	<i>sog'ar</i>
6	<i>gulgun (a)</i>	<i>qadah, sirishk, ashk, ko'nglak, to'n, rishta, qon, uzor, kog'az</i>	23	<i>moviy</i>	<i>katon</i>
7	<i>gulnor</i>	<i>jom</i>	24	<i>noranji</i>	<i>libos</i>
8	<i>gulrang</i>	<i>yilak, kog'az</i>	25	<i>obgun</i>	<i>kisvat</i>
9	<i>za'faroniy</i>	<i>yuz</i>	26	<i>oq</i>	<i>shugufa, gul</i>
10	<i>qaro</i>	<i>dud, ko'z, xol, xat, qosh, tosh, balo, nargis, tufrog', kun</i>	27	<i>otashin</i>	<i>gul</i>
11	<i>qizil</i>	<i>gul, til, to'n, sandal, xoro, fo'ta</i>	28	<i>sabza</i>	<i>xat</i>
12	<i>qonlig'</i>	<i>momuq</i>	29	<i>sarig'/sorig'</i>	<i>ruxsor, yuz, oraz, bo'rk</i>
13	<i>kofuriy</i>	<i>harir</i>	30	<i>siymgun</i>	<i>libos</i>
14	<i>ko'k</i>	<i>hitori</i>	31	<i>siymobiy</i>	<i>libos</i>
15	<i>ko'kumtul</i>	<i>dog'</i>	32	<i>surmagun</i>	<i>tun</i>
16	<i>la'l (i)</i>	<i>lab, nob, maygun</i>	33	<i>shabgun</i>	<i>parda, hulla</i>
17	<i>shafaqgun</i>	<i>may</i>	34	<i>shingarf</i>	<i>ashk</i>

Misollar:

*Jismim uzra bor yangi butgan ko'kumtul dog'dek,
So'zi hajringdinki urdum g'ussadin har yerga nesh (G'S)*

*Erur jismingda axzar xil'at ul nav',
Ki gulbun bargidin to'n qilsa nasrin (G'S)*

*Arg'uvoniy to'nmudurkim kiymish ul sarviravon,
Yo magar sarviravon qilmish libosin arg'uvon (G'S)*

*Jilvamu qildi sarig' bo'rkin kiyib ul sarvinoz,
Yoki chekti shu'la axzar jism ila sham'i tiroz (G'S)*

*Qon yoshimdin la'lgun kirpik bila aytur ko'zum,
Orazing nazzorasin aylarda yuz til birla roz (G'S)*

*Qarodur xolu xattu ko'zu qoshing,
Magar borini kuydurmish quyoshing (G'S)*

Navoiy asarlarida rang-tus sifatlarining tuzilishiga ko'ra tub, sodda yasama va qo'shma shakllari ham uchraydi: *ol, moviy, surx, ablaq; rummoniy, sabzagun, lolavor, kofurgun; nilrang, gulnor, zarpaykar, zarrina rang, gulrang:*

*Ko'nglaking bargi gulu ustida **gul rang** yilak*

Gul kibi jisming uza uylaki, gulgun ko'nglak(G'S)

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, Navoiy she'riyatida *rang*¹⁰, *tus* affiksoidi bilan yasalgan rang bildiruvchi qo'shma sifatlarning ma'nosi aniqlanmish orqali anglashilib turadi. Buning ustiga, so'zlarning o'zagi ham ular bildirgan rangni ifodalab turadi.

¹⁰ Rang s'uzi vositasida otlardan rang-tus bildiruvchi sifatlar yasaladi. Rang s'uzi juft s'uzlar komponentligida ham keliishi mumkin. Rang s'uzidan turli affiksalar e'rda sifatlar ham yasaladi: *rangli, rangsiz, rangdor* каби. Bu haqda karang: Sodikova M. Xozirgi u'zbek tilida sifati. –To'skent: Fan, 1974. -88-89-66)

Navoiy nazmiy asarlarida rang tushunchasini ifodalash uchun juda ko'p o'rinlarda gul so'ziga murojaat qilingan bo'lib, bu so'zning xilma-xil shakllarini uchratish mumkin: *gulgun*, *gulnoriy*, *gulrang*, *gulfom*, *gulguna*, *gulgaz*, *gulgunpo'sh*, *gulgul* va hokazo. Ularning har biri qizil rangining turli ottenkalarini ifodalaydi:

№	Leksemalar	Semalar
1	<i>gulgun</i>	<i>gulrang, pushtirang</i>
2	<i>gulguna</i>	<i>qizil</i>
3	<i>gulgaz</i>	<i>ko'kimtir tovlanadigan qizil</i>
4	<i>gulgunpo'sh</i>	<i>qip-qizil</i>
5	<i>gulnoriy</i>	<i>qizil rangli, anor guli rangli</i>
6	<i>gulfom</i>	<i>gulrang, qizil</i>
7	<i>gulgul</i>	<i>chaman-chaman, qip-qizil</i>

Chunonchi:

*Dam-badam ichmas ersang **gulgun** may,
Ne uchun orazing o'lmish **gulgul** (FK)¹¹*

Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasida keltirilgan *gulgul* so'zini, yuzaki qaraganda, vazn talabi bilan qo'llangan deb ham izohlash mumkin. Lekin bu misolda *gulgul* so'zining qo'llanishi tasodifiy emas. Chunki shoir bu o'rinda juftlik tushunchasini ifodalash uchun aynan gul so'zining takroridan foydalangan: ma'shuqaning ikki yuzi ham *gulgun* maydan–ishqdan lov-lov yonmoqda. Bu o'rinda, bizningcha, *gulgul* so'zi aynan rang tushunchasini ifodalash uchun emas, balki ma'shuqa yuzlarini bir juft gulga qiyoslash uchun qo'llangan.

Shoir sodda yasama sifatlarni *-iy*, *-i*, *-fom*, *-vash*, *-vor*, *-gun*, *-tob* singari forscha va arabcha affikslar yordamida hosil qilgan va ular rang affiksoidiga sinonim sifatida qo'llangan: *gulgun* –*pushtirang*, *axzariy* – *yashil rang*, *lemuyi* – *sarig'*, *siyahfom* – *qora tusli*, *shafaqvash* – *shafaqday qizil*, *lolavor* – *loladay qizil*, *siyahtob* –*qoramtir*. Chunonchi:

¹¹ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. IVт.Фавойидул-кибар. –Т., 1963.

*Oqizdi limuyi bo'rkungni ko'rgach, oncha qon ko'nglum,
Ki za'fetti sorig' gul g'unchasidek notavon ko'nglum (G'S)*

Yuqorida qayd etilgan sifat yasovchi formalar ichida *-iy, -vash, -gun* affikslari serunum yasovchilar hisoblanadi:

*Bo'ldi siymobiy libosing rangi baskim, ayladim
Ko'z sahobidin boshingg'a ashk siymobin nisor (G'S)*

*Za'faroniy yuzda gulgun ashk to'kmak ne osig',
Ishva ko'rgan dahr bog'ining guli ra'nosidan (G'S)*

“Navoiy asarlari lug'ati”dagi *-vash, -gun* affikslari shunday izohlanadi: VASH f. So'z birikmasida kelib, **o'xshash, kabi, dek, namo** ma'nolarini bildiradi: **Asfarvash** –sarg'ish, sarg'ishnamo; GUN f. . So'z birikmasida kelib, **rang, rangli, tusli** ma'nolarini bildiradi: **Kofurgun** – kofur rangli, oq, oppoq¹².

Demak, ushbu qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan predmet rangiga qiyoslangan rang-tusni bildiradi¹³. Yuqorida qayd etilgan qo'shimchalarning aksariyati ana shunday xususiyatga ega.

Navoiy asarlarida rangni majoziy ma'noda ifodalovchi ayrim so'zlarni ham uchratish mumkin. Masalan, *gulnor, kofur, mushk, noranj*¹⁴ va hokazo. Bu so'zlar lug'at da quyidagicha izohlanadi:

GULNOR f. 1. Qizil gul, anor guli; 2. maj. Qip-qizil: **Mayi gulnori** – qizil may.

NORANJ a.1.Nordon, apelsin; 2. maj. Sarig' tus.

KOFUR F. 1. G'oyatda oq va xushbo'y modda; 2. maj. Oppoq tus.

MUSHK f. 1. Qora tusli va xush isli narsa; 2. maj. Sochning qoraligi va hidi; ko'zning gavhari (qorachig'i); 3. maj. Tim qora ...

Mushk so'zi sifat yasovchi *-in* affiksi bilan quyidagi so'z birikmalari tarkibida qo'llanadi: **mushkin raqam** – qora yozuv, qora siyoh bilan yozish; **mushkin sahob** – qora bulut; **mushkin hilol** maj. – tim qora gajak, qora qosh.

¹² Navoiy asarlarini lug'ati. –T.: F.Фуллом, 1972. 147-, 168-б

¹³ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. T.: ФАН, 1984. 86-б.

¹⁴ Navoiy asarlarini lug'ati. –T.: F.Фуллом. 1972. 166-, 319-, 433-, 468-б.

Mushkin so'zining turkiy tildagi ekvivalenti bo'lgan *qora* sifatini Navoiy *qaro* yoki *qara* shaklida qo'llaydi. *Qora* leksemasi boshqa rang bildiruvchi sifatlarga nisbatan ko'p ma'noliligi hamda qo'llanish chastotasiga ko'ra ajralib turadi. Alisher Navoiy matnda *qaro* sifatini asl va ko'chma ma'nolarda ham qo'llagan: *qaro ko'z*, *qaro tosh*, *qaro nargis*, *qaro tufrog'*, *qaro bosmoq*, *qaro kiymoq*, *ro'zg'or qaro aylamak*, *yuzga qaro tilamak*, *qaro balo* (*yopirilib kelgan ofat*), *qaro jon* (*qiynalgan jon*), *qaro kun*, *qaro og'riq* (*qorayish kasali*), *qaro pul*, *qaro qayg'u*, *axtar qaro* (*baxtsizlik*), *bag'riqaro* (*qush*). Chunonchi:

Qarodur xolu xattu ko'zu qoshing,
Magar borini kuydirmish quyoshing (G'S)

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur,
Kim jong'a qaro balo bo'luptur (G'S)

“G'aroyibus-sig'ar” devonidan o'rin olgan quyidagi baytda shoir qora so'zini shunday mahorat bilan qo'llaydiki, natijada, ikkinchi misradagi sodda gap komponentlari qora leksemasi yordamida shakllangan uchta iboradan tashkil topadi.

Qildi ovora meni xastani ovora ko'ngul,
Xonumonimni qaro qildi yuzi qora ko'ngul. (G'S)

Keltirilgan misolda *xonumonimni qaro qildi*, *yuzi qora*, *qora ko'ngul* iboralari qaro va qora so'zlari yordamida shakllangan. Bilamizki, qora va qaro so'zlarining ma'nolarida deyarli farq yo'q. Bu o'rinda vazn talabidan kelib chiqqan holda, bir so'zning turli fonetik variantlari qo'llangan. Shunday bo'lsa-da, qoraga nisbatan qaro leksemasida ushbu rang ottenkasi ortiqroq. Qaro so'zi dastlabki iboralarning sintaktik shakllanishida kesim, so'nggi iborada esa aniqlovchi vazifasini bajargan. Ma'nosiga ko'ra *xonumonimni qaro qildi* iborasi fe'l turkumiga, , *yuzi qora va qora ko'ngul* iboralari esa sifat turkumiga mansub. Shundan kelib chiqib, mazkur iboralar sodda gap komponenti sifatida matnda yaxlit holda muayyan sintaktik vazifalarni bajaradi: *ko'ngul* –ega, *yuzi qora* – aniqlovchi, *xonumonimni qaro qildi* – kesim.

Qaro so'zi ayrim g'azalarda radif sifatida ham qo'llangan. Quyidagi matla' bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalda ushbu rangni ifodalovchi leksema 11 marta takrorlangan:

*Xil'atin aylabmudur ul sho'xi siyminbar **qaro**,*

*Tun savodi birla kiygandek mahi anvar **qaro** (G'S)*

Shoirning "G'aroyibus-sig'ar" devonidan o'rin olgan 3ta g'azalida tasvir bir rang doirasida boradi. Masalan:

*Qilg'ali kiygan libosin ul buti zebo **binafsh**,*

*Vahki, yoqmas xotiring'a hech rang illo **binafsh** (G'S)*

matlasi bilan boshlanuvchi 11 baytdan iborat mazkur g'azal radifi *binafsh* she'r davomida 17 marta qo'llangan. Bundan tashqari, g'azalda yana *ra'no*, *qaro*, *savsani*, *mushkin*, *sho'xi sabzo*, *ko'k*, *yashil* singari ranglarni ham ko'rish mumkin.

"*Qizil*" radifli g'azalida esa qizil so'zi 9 marta takrorlangan va unga sinonim bo'lgan *gulfom*, *shingarf* sifatlari ham qo'llangan:

*Qilg'ali xil'atin ul sarvi gul andom **qizil**,*

*Qildi qon to'kmak ila dahrni gulfom **qizil** (G'S)*

Qizil so'zi radif bo'lib kelgan g'azallar Navoiyning boshqa devonlariga ham kiritilgan. Ana shunday g'azallardan biri "Badoeul-vasat" devonida uchraydi. G'azal 9 baytdan tashkil topgan bo'lib, qizil so'zi 10 bor takrorlanadi. Bundan tashqari, baytlarda *sarig'*, *gulnor*, *gulgun*, *sabza*, *lolagun* singari sifatlarni ham uchratish mumkin:

*Ul guli ra'nog'a nomam xo'b emas, yak son **qizil**,*

*Sahfasi bo'lsa kerak bir yon sarig', bir yon **qizil** (BV)*

Yuqoridagi g'azallarning o'ziga xos jihati shundaki, ma'shuqa g'azal boshidanoq biror rangdagi libosda namoyon bo'ladi. Natijada, oshiq butun olamni ana shu rangda ko'radi, shu rangga bog'liq holda lirik qahramonning ichki kechinmalari va holati ochila boradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har bir rang ramziy ma'noga ega bo'ladi. Alisher Navoiyning deyarli barcha devonlarida ham tasvir bir rang doirasidagi g'azallarni uchratish mumkin. "Navodirush-shabob" devonidan o'rin olgan "Oq" va "*Qora*" radifli g'azallar ana shunday g'azallar sirasiga kiradi:

*Ashkdin bo'ldi qororg'on kulbai vayronim oq,
Kulbai vayron demaykim, diydai giryonim oq. (NSH)¹⁵*

*Yoshdin onгла yuzum: gar siymgundur, gar qizil,
Toshdin angла tanimni: gar ko'k o'lmish, gar qaro. (NSH)*

Yuqorida keltirilgan baytlarda *oq* va *qora* ranglari orqali hijron azobida qiynalgan oshiq ruhiyati ochib berilgan. Birinchi misolda *Ko'z yoshlarimdan qora kulbam oq rangga kirdi, yo'q, vayrona kulbam emas, ko'z yoshlarim oq* deya, ruju' san'ati orqali o'ziga xos tasvir yaratilgan. Ikkinchi baytda esa *Oshiq yuzining goh oq, goh qizil rangda bo'lishi ko'z yoshlaridan, oshiq badanining ko'k yoki qora rangda ko'rinishi uning toshdan ekanligidadir*, mazmunini anglash mumkin. Ushbu tasvir va ifodalarning barchasi ranglar vositasida yuzaga chiqqan.

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan rang-tus sifatlarini tadqiq etish orqali shoirning lug'at boyligi va so'z qo'llash mahoratining naqadar yuksak darajada ekanligini yana bir bor ko'rish mumkin.

NAVOIY SHE'RIYATIDA MAQOL VA IBORALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

So'z ko'rki bo'lgan maqol va iboralardan foydalanish har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi. Alisher Navoiy ijodida ham xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol va iboralardan keng foydalanilgan. Bu vositalar fikrni obrazli qilib ifodalash, go'zal badiiy timsollar yaratish uchun xizmat qilgan. Navoiy g'azallarida maqollar mazmunan g'azal baytining muayyan misrasida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun keltirilgan. Bu bilan ifodalanayotgan fikrning o'tkir va ta'sirchan, sodda va ravon bo'lishiga erishilgan. Masalan:

*Keldi manga chu belini chektim, masaldurur
Kim «tortsa bo'lur keluri bo'lsa qil bila» (G'S, 550)¹⁶*

¹⁵ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. II т. Наводируш-шабоб. –Т., 1963.

¹⁶ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I т. Фаройибус-сиғар. Т.: ФАН, 1959.

Ushbu baytda ma'shuqasining belidan tutgan oshiq holati keyingi misrada joylashgan «*Kelishga xohishi bo'lsa, qil bilan tortishning o'zi kifoya*» mazmunidagi xalq maqoli bilan qiyoslanadi.

Quyidagi:

CHun masal bo'ldi soching zulm ichra yoshurmoq ne sud,

Mushk isi yashursa bo'lmas, bu masal mashhur erur (G'S, 204)

baytida ikkinchi misrada keltirilgan *Mushk isi yashursa bo'lmas* xalq maqoli birinchi misradagi fikrga chog'ishtiriladi. Bu maqol bugungi kunda "*Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi*" shaklida keng qo'llanadi.

Navoiy g'azallarida maqol mazmunan baytda ifoda etilgan ma'lum fikr bilan qiyoslash uchun keltirilar ekan, ko'pincha baytda "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo'ldi" singari jumlar qo'llangan. Chunki mazkur birliklar, avvalo, baytda qo'llangan maqolga ishora qilib tursa, ikkinchidan, ta'kid va qiyosni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Shoir g'azallarida maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida keltiriladi. Bunday baytlarni shakllantiruvchi gaplar o'zaro sabab-natija, qiyos va o'xshatish munosabatlarini ifodalaydi. Chunonchi:

Pil o'lsa sening xasming, desangki zarar topmay,

Bir pashshag'a olamda yetkurma zarar hargiz. (G'S, 226)

Birinchi misrani shakllantirgan "*Agar dushmaning fil bo'lsa, zarar topmay desang*" mazmunidagi shart gap keyingi misrada insonlarni dilozorlik qilishdan qaytaruvchi «*Pashshaga ham ozor berma*» mazmunidagi maqol bilan xulosalangan.

Quyidagi misollarda ham maqolning baytda o'rnashuvi ikkinchi misraga to'g'ri keladi:

Chun Navoiy ko'ngli sindi emdi lutfung ne osig',

Kim ushatsa shishani butmas oni payvand ila (G'S,557)

yoki:

May batining ko'r nishot afzoliq'in huzn ahlig'a,

Kim kuyar o'lu qurug' chun nayistong'a tushti o't (G'S,104-b)

Baytlarda “Ushatsa shishani butmas oni payvand ila”, “Kuyar o’lu qurug’ chun nayistong’a tushti o’t” maqollari avvalgi misradagi fikrni ta’kidlash va tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Bu maqollarni hozirgi kunda «Singan shishani butlab bo’lmaydi», «Qamishzorga o’t tushsa xo’l-u qurug’ baravar yonadi» shakllarida uchratish mumkin. Navoiy baytda sabab –natija munosabatini ifodalamoqchi bo’lsa, ikkinchi misrani *kim bog’lovchisi yordamida shakllantirgan*, o’xshatish munosabatida esa ikkinchi misra *o’ylakim bog’lovchisi bilan boshlangan*. Masalan:

Ashk ichinda g’arqamen, zulfingni tutkaymenmu deb,

O’ylakim tojir tengiz ranjin chekar savdo uchun (G’S, 499)

baytida shoir o’xshatish munosabatini tamsil san’ati orqali ifodalagan va baytdan “Zulfingni tutish ilinjida ko’z yoshi ichida g’arq bo’lmoqdaman, bu shundayki, savdogar savdo uchun dengiz zahmatini chekkanga o’xshash” mazmuni anglashiladi. Ushbu misolda hozirgi tilimizda tez-tez qo’llanadigan “Jon kuydirmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do’lona qayda” xalq maqoli Navoiyda *Tojir tengiz ranjin chekar savdo uchun* shaklida berilgan.

Uslubiy jihatdan maqollarni ikkinchi misrada qo’llash ancha qulay bo’lgan. Navoiy g’azallarida maqollar baytning birinchi misrasida ham keltirilgan, lekin bu juda sanoqli misollardagina uchraydi. Masalan:

Oltun ezilib-erib kuygan soyi xolis bo’lur,

Ne ajab sorg’orsa yuz etgan soyu emkak mango (G’S, 31)

baytida «*Oltin o’tda bilinadi*» xalq maqolini keltirish bilan, ishq mashaqqati tufayli sarg’aygan oshiq yuzini oltinga chog’ishtirish orqali shoir o’zgacha she’riy timsol yaratadi.

She’riyatda qo’llangan maqol hamma vaqt ham aynan, o’zgarishsiz qo’llanavermaydi. Ko’pincha, maqollar ayrim tahrirlar bilan she’r mazmuniga singdirib yuborilishi mumkin. Alisher Navoiy tomonidan qo’llangan xalq maqollarining ba’zilari shoir davri uchun xos bo’lib, bugungi kunda ularning shakl va mazmun jihatdan yangi variantlari qo’llanadi. Quyidagi:

Hajr qolmas yoshurun ohu fig’on chek, ey ko’ngul,

Kim yashurmoq birla hargiz qolmadi pinhon o’lum (G’S, 445)

baytining ikkinchi misrasida joylashgan *yashurmoq birla hargiz qolmadi pinhon o'lum* maqolidan «*Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi*» mazmunidagi xalq maqolini anglash qiyin emas.

Nutqimizda tez-tez qo'llanib turadigan “*Yuzing qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama*” xalq maqolini Navoiy g'azallarida “*Egri esa egri ko'rguzur ko'zgu*” shaklida uchratish mumkin. Masalan:

*Ko'ngilni tuz, tilosang foyiz o'lsa tuz ma'ni,
Nedinki, egri esa egri ko'rguzur ko'zgu_ (G'S, 538)*

Alisher Navoiy g'azallarini o'rganar ekanmiz, unda maqollarga qaraganda iboralardan ko'proq foydalanilganligiga amin bo'lamiz. Buning sababini xilma-xil badiiy timsol yaratish, fikrni jozibali va ta'sirchanroq ifodalashda maqollarga nisbatan iboralarning uslubiy imkoniyatlari ortiqroq ekanligi bilan izohlash mumkin. Chunki iboralarda fikr obrazli qilib ifodalangan bo'ladi. Navoiy she'riyatida xalq iboralarini *tilimni lol etib* (281-b), *olur hushingni* (281-b), *jon yetti og'zing'a* (281-b), *mashaqqat chektim*(329-b) , *jon taloshur* (333-b), *silk etak*(343-b), *kulini ko'kka sovurding*(372-b), *boshga chiqmoq* (382-b), *ko'zum nazzoradin to'rt o'ldi* (384-b), *toshdek ko'nglin oning mum qil* (399-b), *yuz qarolig'* (414-b), *oqardi boshim* (414-b), *ko'nglum ochilur* (439-b), *bersa emdi pand*(412-b), *jon berib* (445-b), *iki yuzlik*(192-b) shakllarida uchratish mumkin.

G'azal baytlarida shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ko'p ma'noli, omonim va sinonim iboralarni ham uchratish mumkin. Shoir ular vositasida betakror badiiy timsollar yaratgan. Quyidagi misollarda *bosh ko'tarmoq* ko'p ma'noli iborasi turli xil ma'nolarda qo'llangan:

*Mayda soqiy aksini ko'rgach egildim o'pgali,
Bosh ko'tarmon emdi ya'nikim topibmen infiol (G'S, 396-b)*

*Sanam ollida maydin bosh ko'tarmon,
Ki qildi dayr piri mundoq irshod (G'S, 140)*

Bosh ko'tarmok iborasi birinchi misolda *uyatdan bosh ko'tarolmaslik*, ikkinchi misolda esa *maydan bosh ko'tarolmaslik* ma'nosini ifodalagan. Mazkur ibora boshqa

bir baytda *bosh olma* shaklida qo'llangan, shuningdek, *ayog'* so'zi bilan birikib, ikki xil ma'no ifoda etgan. Masalan:

Ey Navoiy, dayr aro tutsa ayog' ul mug'bacha,

No'sh etib olma ayog'idin aning o'lguncha bosh (G'S, 217)

baytida *olma ayog'idin aning o'lguncha bosh* birikmasini ikki xil mazmunda – *o'lguncha yorning oyog'idan bosh olmaslik* va *o'lguncha qadah (ayog')dan bosh olmaslik* mazmunida tushunish mumkin. Yana bir misolda *paymonasi to'lmoq* birikmasi ham *o'z* ma'nosida, ham majoziy ma'noda qo'llangan. Shu o'rinda shoir mumtoz adabiyotimizga xos lafziy san'atlardan biri–**iyhom**¹⁷ san'atining go'zal namunasini yaratgan. Chunonchi:

O'lturay bir may bila deb, tirguzursen, soqiyo,

Obihayvon birla go'yokim to'lar paymonamiz (G'S, 229)

baytida keyingi misrada ifodalangan gap ikki xil ma'noda qo'llangan: a) *may bilan qadahimiz to'ladi*(so'z birikmasi); b) *may bilan paymonamiz to'ladi*(*ibora*). Shoir paymona so'zining ma'nolaridan foydalanib, baytda o'ziga xos so'z o'yini qo'llagan. *Paymonasi to'lmoq* iborasi tilimizda hanuz qo'llanib kelinmoqda.

Iboralarning sinonimiyaga boyligi ulardan foydalanishda katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi. Chunki bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o'zaro obrazlilik darajasi jihatidan farqlanadi. Masalan, quyidagi baytda qo'llangan *ko'nglakin chok aylamish, yaqo chok qilsa, ko'ksi chok o'lmay* frazemalari ayni bir ma'noni anglatrsa-da, ammo obrazlilik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ushbu iboralarning so'nggisi ma'no darajasining kuchliligi, obrazliliigi va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Iboralar ma'nosidagi ana shu nozik jihatlar ham Navoiy e'tiboridan chetda qolmagan va shoir baytda iboralarni obrazlilik darajasiga ko'ra ketma-ket qo'llagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur sinonimik uyada *ko'ksi chok o'lmoq* iborasida obrazlilik darajasi kuchli:

Ko'nglakin chok aylamish anduhdin gul, chun yaqo

Chok qilsa naylasun bulbulning o'lmay ko'ksi chok (G'S, 347)

¹⁷ Ийҳом – араб тилида «шубҳага солиш» деган маънони ифодалайди. Мумтоз адабиётда эса ийҳом ҳақиқий ва мажозий маъноларга эга, ёхуд шаклан бир, маъно жиҳатидан ҳар хил бўлган (жинсдош) сўз ёки сўз бирикмасини шеърятда қўллаган ҳолда бир байтда икки хил маънони ифодалаш санъатидир. Қаранг: Ҳожиҳмедова. Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия. Т., «Шарк», 1998.

Mazkur baytda o'zaro ma'nodosh iboralarni qo'llash oshiq holatini ta'kidlash uchun xizmat qilgan.

Quyidagi misralarda esa *peşonaga yozilganini ko'rmoq va taqdirdan qochib qutula olmaslik* kabi iboralar sinonimligini kuzatish mumkin:

Har ne yozmish ollingga qilki qazo ko'rmak kerak,

Ey Navoiy, qochmoq o'lmas tengrining taqdiridin (G'S, 504)

Navoiy *sinuq ko'ngul* iborasiga *yo'qturur bori olamda bir ko'ngil g'amsiz* turg'un birikmasini sinonim sifatida qo'llaydi:

Sinuq ko'ngulda chu yo'q shodliq, sog'inurmen,

Ki yo'qturur bori olamda bir ko'ngil g'amsiz (G'S, 218)

Alisher Navoiy g'azallarida iboralarning ma'nosiga ko'ra sifat, fe'l va ravish so'z turkumlariga xoslangan turlarini uchratish mumkin. Masalan:

Ikki yuzluk bo'lmakim, bu bog'ning ra'no guli

Gar qizorur bir yuzi, lekin yana bir sorg'orur (G'S, 192)

Qildi ovora meni xastani ovora ko'ngul,

Xonumonimni qaro qildi yuzi qaro ko'ngul (G'S, 397)

baytlarida qo'llangan *xonumonimni qaro qildi* iborasi harakat tushunchasini, *ikki yuzlik, yuzi qaro, qora ko'ngil* iboralari esa belgi tushunchasini ifodalaydi. Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilida *qora* leksemasi ishtirokida, asosan, salbiy ma'noli frazemalar shakllangan. Chunki bu rang yomonlik timsoli hisoblanadi. "**Qora** leksemasi frazemalar tarkibida predmetning rangini ko'rsatmaydi, balki ko'chma ma'noda qo'llanib, shaxs xarakteridagi munofiqlik, g'alamislik, g'iybatchilik, berahmlik kabi salbiy xislatlarni yoki "eng og'ir, eng yomon" singari ma'nolarni emotsional-ekspressiv va obrazli ifodalashda qo'llanadi"¹⁸.

Fe'llarda uyushtiruvchilik kuchli bo'lib, ko'pincha boshqa so'zlarni o'ziga ergashtirib, uni boshqarib keladi¹⁹. Fe'llarning bu xususiyati frazemalarda ham o'z aksini topgan. Fe'llarning nutq elementlarini birlashtiruvchilik xususiyati o'zbek tilida

¹⁸А лимамадова Ш. Ўзбек тилида фраземаларнинг компонент таҳлили. Фил. фан. номз. дисс. ... автореф. Т., 2008.11.

¹⁹ Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1992.316-б.

“iboralarning asosiy qismini fe’l frazeologik iboralar tashkil qilishi”²⁰ni ta’minlaydi. Fe’llar frazema tarkibida grammatik tayanch a’zo sifatida qatnashadi. Bunday komponent butun frazemaga fe’llik xususiyatini o’tkazib, frazemalar ish-harakat faoliyatini ifoda etadi. Masalan:

*Labing ko’rgach **iligim tishlaram** har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, bolni tutmayin barmog’ yalaydurmen. (G’S, 470)*

Ushbu baytda keltirilgan komponentlaridan biri eskirgan **iligim tishlaram** iborasining hozirgi varianti *barmog’ini tishlamoq* shaklida ishlatiladi va “hayratlanish” ma’nosini anglatadi.

Yana bir misol:

*Keting, ko’ngul bila jonkim, vidoingiz qildim,
Firoq agar budur, **erta kunni kech qilasiz** (G’S, 221)*

Mazkur baytda firoq iztiroblaridan azoblangan oshiqning ko’ngil va jonga murojaati berilgan. Bu holatni obrazli ifodalash uchun *erta kunni kech qilmoq* fe’l frazemasi qo’llangan. Ushbu iboraning xarakterli jihati shundaki, garchi fe’l-kesim bo’lishli shaklda ifodalangan bo’lsa-da, ammo mazmun hamisha bo’lishsiz shaklda ifoda topadi, ya’ni “*erta kunni kech qilmaslik*”.

Quyidagi misolda ravish turkumiga mansub *kechani kecha demay, kunduzni kunduz demay* turg’un birikmasi mahbuba yuz-u zulfining ishtiyoqida, kunduz va kechaning farqiga bormay qolgan oshiq timsolini ta’sirchanroq ifodalash uchun ishlatilgan:

*Yuzu zulfungni sog’inib kelmisham, ey mahjabin,
Kechani kecha demay, kunduzni kunduz demay (G’S, 462)*

Alisher Navoiy g’azallarida iboralar sintaktik modeliga ko’ra so’z birikmasi shaklida yoki gap shaklida beriladi. Masalan:

*Ishqda g’ayrat **tilimni lol etibdur**, ey rafiq,
Hajr zulmidin emasturmen so’zum yo’qtin xamush (G’S, 281)*

Sham’ hamdardimdurur hijron tunikim men kibi,

²⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Т.: Қамуслар бош тахририяти, 1992. 11-б.

Hajr o'tida qovrilur, ul dog'i o'z yog'i bila (G'S, 573)

El tilidin uyqu o'chmishtur ko'zumdin go'yiyo,

Kim erur baxt uyqusining boisi afsonamiz (G'S, 229)

Birinchi misoldagi hayratlanish ma'nosini beruvchi *tilimni lol etibdur* iborasi so'z birikmasi modelida, keyingi baytlarda keltirilgan ruhiy iztirobni ifoda etuvchi *hajr o'tida qovrilur, ul dog'i o'z yog'i bila, uyqu o'chmishtur ko'zumdin* iboralari esa gap modelidadir.

Birgina "G'aroyibus-sig'ar" devonidan tanlab olingan misollardan ko'rinib turibdiki, Navoiy she'riyatida xalq maqollari va iboralaridan keng foydalanilgan. G'azallarda xalq og'zaki ijodining shaklan ixcham, mazmunan ta'sirchan unsurlari bo'lgan maqol va iboralarning rang-barang ifoda usullarini uchratish mumkin. Shuni aytish joizki, asrlar davomida Navoiy asarlarining xalqchilligini ta'minlagan jihatlardan biri ham ana shunda bo'lsa kerak. Zero, ijod ahli so'zni xalqdan oladi, unga badiiy sayqal berib yana xalqqa taqdim etadi.

NAVOIY G'AZALLARIDA LAFF VA NASHR SAN'ATI

Bu san'at mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan bo'lib, "yig'ish va yoyish" degan ma'noni ifodalaydi. Laff va nashr san'ati she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini keltirib, keyin ular haqidagi hukmni bayon qilishga asoslanadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir. Laff va nashr san'ati asosida tashbih yoki mubolag'a yotadi. Ana shu nuqtai nazardan ushbu san'atni yashirin o'xshatish deb ham atash mumkin. A. Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya"²¹ kitobida laff va nashr san'atiga bag'ishlangan maqolada mumtoz adabiyotimiz namoyandalari qalamiga mansub 30 ta bayt keltirilgan. Eng qizig'i shundaki, Alisher Navoiy g'azallaridan birorta ham bayt berilmagan. Vaholanki, Navoiy she'riyatida laff va nashr eng ko'p qo'llangan san'atlardan biridir. Shoir mazkur san'atning betakror namunalarini, go'zal

²¹ Ходжахмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. Т.: Шарқ, 1998, 42-47-б.

ifodalarini yaratgan. Quyida Navoiy she'riyatining ana shu jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Odatdagidek, Alisher Navoiy g'azallarida ham laff baytning birinchi misrasida, nashr esa ikkinchi misrada keltiriladi. Quyidagi misolda shoir yorning xattu xolini va oshiq ko'nglini dastlabki misrada sanab keltiradi, so'ng keyingi misrada ularning har biri haqidagi hukmni bayon qiladi:

Xattu xoli nuqtasi yuz choklik ko'nglimdadur,

Bir qafasda turfadur, vah-vah, ko'ring to'tiyu zog' (G'S)

Bu o'rinda shoir *xatni to'tiga, xolni zog'ga, ko'ngilni qafasga* qiyoslaydi. Navoiy she'riyatida xat bilan bog'liq laff va nashr san'ati ifodalangan jilma-xil baytlarni uchratish mumkin. Ularning hammasi ham betakror tashbehiv ifodalardir. Quyidagi:

Xattining vasfin yozarmen kipriku xoli bila,

Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod (G'S)

baytida laff va nashr san'ati orqali mahbuba xattining vasfini uning kiprigi va xoli bilan yozmoqchi bo'lgan oshiq kechinmalariga *xat, qalam* va *dovot* so'zlari nashr sifatida tanlangan. Keltirilgan baytda yorning *xatti xatga, kiprigi qalamga, xoli midodga* qiyoslangan. Baytda laff va nashr san'ati tajnis san'ati bilan uyg'unlikda berilgan. Bu o'rinda xat so'zlari o'zaro tajnis hisoblanadi.

Laff va nashr san'ati uchun hamma vaqt ham yorga xos xususiyatlar asos bo'lavermaydi, balki hijron azobida qiynalayotgan oshiq ruhiy iztiroblarini ifodalovchi tushunchalar ham asos bo'lishi mumkin. Masalan:

Qon yoshim sorig' yuz uzra oshkor etti firoq,

Za'faronzorimni g'amdin lolazor etti firoq (G'S)

baytida birinchi misrada ifodalangan *oshiqning firoqdan sarg'aygan yuzlaridan qon yoshlarining oqishi* keyingi misrada *za'faronzorim* va *lolazor* so'zlariga qiyoslanadi. Shunisi e'tiborga molikki, ushbu misolda laff uchun tanlangan so'zlar o'z epitetiga ega bo'lib, keyingi misrada nashr ana shu epitetlar ishora qilgan istioralar orqali berilgan.

Laff va nashr san'ati ko'p hollarda ikki tushuncha o'rtasida yuzaga chiqadi. Quyidagi misolda laffda yig'ilgan *ashk* va *yuz* so'zlarining qiyosi keyingi misradagi *lola* va *bog'* nashrlari hisoblanadi:

Necha rangin ashk to'ksam ko'zda ul yuz naqshidur,

Loladin o'zga ne gul bergay suyi qon bo'lsa bog' (G'S)

Baytda laff va nashr san'ati oshiq ko'z yoshlarining rangin bo'lishiga sabab ma'shuqa yuzining naqshi uning ko'zlarida aks etishi tufayli kabi mubolag'aviy ifoda orqali yuzaga chiqadi.

Ushbu san'atda aksariyat laff baytning birinchi misrasida, nashr esa keyingi misrada keltiriladi, lekin she'riyatda buning aksiga ham duch kelamiz. Navoiy g'azallarida laff va nashrning joylashuv tartibi o'zgargan baytlar ham uchraydi. Chunonchi:

Qut bir bodomu erim go'shai mehrob edi,

G'orati din etti nogah bir balolig' ko'zu qosh (G'S)

baytida birinchi misrada *bodom* va *mehrob* so'zlari nashr, keyingi misradagi *ko'z* va *qosh* so'zlari esa laff hisoblanadi.

Quyidagi baytda ham laff va nashr o'zgargan tartibda qo'llangan. Birinchi misrada birgina g'uncha so'zi nashr hisoblanadi. Ma'lumki, hukmlar miqdori laff bilan ifodalangan tushunchalar miqdoriga teng bo'ladi. Shoirning bu san'at borasidagi go'zal uslubi shundaki, son yordamida g'uncha so'zini ikkilantirgan va ikkinchi misrada *og'iz* va *ko'ngil* so'zlari laff sifatida keltirilgan. Yorning og'zi va ko'ngli birgina predmetga –g'unchaga qiyoslanadi. Masalan:

Iki g'unchang ermas, ey gulchehra, teng

Og'zing asru toru ko'nglung asru keng (G'S)

Navoiy she'riyatida *qosh* va *yuz* so'zlari laff sifatida keltirilgan baytlar ko'plab uchraydi. Lekin har gal shoir ular uchun yangi nashrlar tanlaydi. Masalan:

Vo'sma uzra zar varaqlik ikki qoshing yuz uza,

Jilvagar bo'lg'on iki tovus erur gulzor aro (G'S)

baytida *ikki qosh* *ikki tovusga*, *yuz gulzorga* o'xshatiladi. Yana bir misol:

Qoshu yuzungdin agar ortar jununim ne ajab,

Telbalikka ham yangi oydur madad, ham navbahor (G'S)

Mazkur baytdan “Yorning qoshu yuzi oshiq telbaligini ziyoda qiladi, bunga sabab telbalik yangi oy chiqqanda va ilk bahorda avj oladi” mazmuni anglashiladi. Baytda *qosh* va *yuz* soʻzlari laff, *yangi oy* va *navbahor* soʻzlari esa nashr hisoblanadi. Nashrlar hayotiy lavha koʻrinishini olgan, yaʼni tamsil sanʼati ham qoʻllangan.

Mumtoz sheʼriyatimizda baʼzan laff ham, nashr ham birgina misrada joylashgan misollarni uchratish mumkin. Navoiy gʻazallari ham bundan mustasno emas, yaʼni laff va nashr baytning birinchi misrasida keltiriladi. Masalan:

Sarvu sunbul loladek qad zulfu yuzung hajridin,

Ham alif, ham naʼl kestim kuydurub yuz erda dogʻ (G'S)

baytida *sarv qadga*, *sunbul zulfga*, *lola yuzga* qiyoslanadi. Shunisi eʼtiborliki, baytda laff sifatida tanlangan soʻzlar oxirida oʻxshatish vositasi ham qoʻllangan. Bu bilan shoir yashirin oʻxshatishga ishora qilgan yoki vazn talabi bilan –*dek* qoʻshimchasini qoʻllagan. Quyidagi misolda ham laff va nashr sanʼati birinchi misrada berilgan boʻlib, *zulf* va *yuz* soʻzlariga *sunbul* va *gul* tashbehlari tanlangan:

Zulfu yuzdin sunbulungni gul uza tarqatma koʻp,

Dahr bogʻida gulu sunbul isin buratma koʻp (G'S)

Yuqorida tahlil etilgan barcha misollar laff va nashrning murattab turi hisoblanadi. Bunda baytning birinchi misrasida laffda keltirilgan tushunchalarga ikkinchi misrada berilgan hukmlar tartibi muvofiq keladi. Chunonchi:

Chekti bosh xatting labu xoling qoshida, vah, ne tong,

Gar muloyim boʻlsa toʻti shakkaru hindu koʻrib (BV)

baytning birinchi misrasida laffda avval *xat*, soʻng *lab*, keyin esa *xol* sanaladi, ikkinchi misradagi nashr – mahbuba aʼzolari haqidagi hukmlar tartibi birinchi misradagi soʻzlarga muvofiq keladi: dastlabki misradagi birinchi – *xat* soʻziga keyingi misradagi *toʻti* tashbehi, ikkinchi – *lab* soʻziga *shakkar* tashbehi, uchinchi – *xol* soʻziga *hindu* tashbehi mos keladi.

Alisher Navoiy ayrim gʻazallarda laff va nashrning nomurattab turidan ham foydalangan. Nomurattab laff va nashrda birinchi misrada laffda yigʻilgan

tushunchalar tartibi bilan ikkinchi misrada keltirilgan hukmlar tartibi muvofiq kelmaydi. Masalan:

La'l o'za xat ichra xolingdur nihon yo hinduyi

Sabzada yoshundi shakkar qasdig'a aylab kamin (G'S)

baytida birinchi misrada *la'l*, *xat* va *xol* so'zlari laff hisoblanadi. Shunisi qiziqarliki, yuqorida ketma-ket sanalgan tushunchalar haqidagi hukm — nashr ikkinchi misrada emas, shu misraning o'zidayoq keltirilgan va keyingi misrada davom ettirilgan. Talabga ko'ra hukmlar ketma-ketligi *shakkar – sabza – hinduyi* tartibida berilishi kerak edi. Lekin bu o'rinda nashr tartibi o'zgargan: *hinduyi, sabza, shakkar*. Baytda *la'l (lab) shakkarga, xat (lab ustidagi mayin tuk) sabzaga, xol hinduga* qiyoslanadi.

Laffda yig'ilgan *xat, lab, yuz* so'zlarining sintaktik shakllanuvda parallelizm qolipidan ham foydalanilgan:

Xat labing uzra, labing yuz uzradur, qilg'on kibi

Obi hayvonu quyosh uzra makon Xizru Masih (BV)

Ushbu baytda ham laff va nashrning nomurattab turi qo'llangan. Laffda yorning *xati, labi va yuzi* yig'ilgan bo'lib, nashrda ular haqidagi *obi hayvon, quyosh, Xizru Masih* kabi hukmlar aytiladi. Lekin bu hukmlar tartibi laff tartibiga muvofiq emas. Aslida hukmlar quyidagi tartibda bo'lishi kerak edi: *Xizru Masih, obi hayvon, quyosh*. Shoir mazkur baytda *xatga Xizru Masih, labga obi hayvon, yuzga quyosh* tashbehlarini qo'llagan.

Laff va nashr san'ati nafaqat tashbehga, balki mubolag'aga ham asoslangan bo'lishi mumkin. Masalan:

Og'zingga tegmas uzoring birla so'z,

Bo'lmadi xurshid birla zarra teng (G'S)

baytida *og'iz* va *uzor* so'zlariga ikkinchi misradagi *xurshid* va *zarra* nashrlari orqali mubolag'ali hukm aytilgan. *Og'iz zarraga, uzor xurshidga* qiyoslanadi. Bu misol uchun ham nomurattablik xos.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodida laff va nashr san'ati o'ziga xos o'rin tutadi. Zero, shoir bu san'atning g'oyat go'zal namunalarini,

xilma-xil ko'rinishlarini yaratgan. Natijada, g'azallarning g'oyaviy va badiiy jihatdan mukammalligi ta'minlangan.

NAVOIY SHE'RIYATIDA KITOBOT SAN'ATI

Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanib kelingan kitobot san'ati arab harflari shaklidan she'riy timsollar va tashbehtar yaratishga asoslanadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyot vakillari arab alifbosi va tilini juda yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham arab alifbosidan o'rin olgan harflar o'zining turfa xil shakllari bilan ularga yangi tashbeh va qiyoslar uchun ilhom bergan bo'lsa, ajab emas. Ayniqsa, Alisher Navoiy lirikasida kitobot san'atining ajoyib namunalarini uchratish mumkin. Shoir o'z she'rlarida sharq adabiyotiga xos badiiy an'analardan foydalanib, uni ijodiy rivojlantirdi va yangi tasvir usullari bilan yanada boyitdi.

Masalan, sharq adabiyotida ma'shuqa qomati "alif"ga, zulfi esa "lom" harfiga qiyos qilinishi an'anaga aylangan. Navoiy ana shu an'anadan foydalanib, ayni damda yangi qiyos yaratadi: ma'shuqa go'zalligidan "lol" qolgan oshiq ruhiy holatini "lom" (ل) va "alif" (ا) harflari yordamida ifodalaydi:

Za'fdin qaddim "alif" bo'ldi, ul ikki "lom"zulf

Har yonimdin fitnaga, vah, ne ajab gar lolmen (G'S,473)

Shoir boshqa bir g'azalida "lab" so'zining arab harflari asosida yozilishiga ishora qilish orqali, yor labi ustidagi xol bejiz emasligi, balki lab so'zi ostida nuqtasi bilan yozilishi tufaylidir, deya she'riy dalil keltiradi. Masalan:

Nuqtai holing nedin shirin labing ustidadur,

Nuqta chun ostin bo'lur qaydakim bo'lsa lab (G'S,65)

Xuddi shundek qiyosni yana bir g'azalda uchratish mumkin, ammo bu o'rinda lab ustida xolning o'rnashuvi "xat" so'zidagi "xe" (خ) undoshining nuqta bilan yozilishi tufaylidir, deya asoslanadi:

Xat lafzi kimki yozsa qo'yar nuqta yuqori

Mushkin xatingning ustida andoq ko'rundi xol (G'S, 398)

Ushbu baytda *xat* so'zi orqali tajnis san'ati ham ifodalangan. Birinchi misrada *xat* - so'z, ikkinchi misrada esa *xat – yor labi ustidagi mayin tuk* ma'nosini ifodalaydi.

Alisher Navoiy har gal ma'shuqa lablari ustidagi xolga yangi qiyoslar topadi. Quyidagi misolda lab ustidagi mayin tuklar orasida ikki xolning joylashuvini "*jon*" so'zining yozilishi bilan izohlaydi. Bunda "*jim*" (ج) va "*nun*" (ن) harflaridagi nuqtaga ishora qilinadi. Chunki ma'shuqa lablari hajr o'tida kuygan oshiqqa *jon* baxsh etuvchidir:

Xating ichinda labingning ikki xoli ne ajab

*Ikidur nuqta yozilur esa xat ichinda **jon**. (G'S,492)*

Ushbu misolda ham avvalgi baytdagi singari *xat* so'zlari o'zaro omonim bo'lib, endi aksincha o'rinlashuv kuzatiladi: birinchi misrada ayollar labi ustidagi mayin tuk, ikkinchi misrada esa yozuv ma'nosini ifodalaydi, ya'ni shoir tajnis san'atini ham uyg'un holda qo'llaydi.

Arab alifbosidagi "*lom*" (ل) va "*dol*" (د) harflari shaklan mahbuba sochlarining oyoqlari ostiga tushib qayrilib turishini eslatadi. Navoiy lirikasida ham ana shunday qiyoslar berilgan baytlarni uchratish mumkin:

Sunbulung tushsa oyog'ing ostida ne aybkim,

*Gul bila xurshidning ostida **lomu doli** bor (G'S,194)*

Ushbu baytdan "*Yorning o'rilgan sochlari oyoqlari ostiga tushsa, buning ajablanadigan joyi yo'q, chunki gul so'zi lom bilan, xurshid so'zi dol bilan tugallanadi*" mazmuni anglashiladi. Bundan tashqari, shoir *gul* va *xurshid* so'zlarini *yor yuzi* va sochiga tashbehiy ifoda sifatida qo'llaydi.

Navoiy "*jim*" va "*lom*" harflari yordamida ham kitobot san'atining nodir namunalarini yaratgan:

Iki zulfung ko'ngul domi, ne yanglig' asray ul qushni,

*Ani tutmoqqa jid ma'lum o'lurchun "**jim**" u "**dol**"ingdan. (BV, 255)*

Yana bir baytda esa "*jim*" va "*lom*" harflari yorning gajaklariga qiyoslanadi:

*Latofat suyi ul yuz, "**jim**" ila "**lom**" ikki yondin zulf,*

Bu so'zni fahm aylar bahravar bo'lg'on jamolingdin.(BV, 255)

Yuqoridagi uch misoldan ko'rinib turibdiki, Navoiy g'azal baytlarida *lom*, *dol*, *jim* harflarini juftlash bilan ushbu san'atning xilma-xil ko'rinishlarini qo'llagan: *lomu dol, jim u dol, jim ila lom*.

Alisher Navoiy arab alifbosi harflaridan faqatgina tashbehu qiyoslar yaratib qolmasdan, uning zamiriga chuqur ijtimoiy, falsafiy fikrlarni ham singdirib yuborgan. Masalan:

Mehr anglab oshiq o'ldum so'ngra yetsa ko'hi g'am,

Ne ajab ishq ibtidosi ayn erur poyoni qof (G'S,323)

Arab alifbosida ishq so'zi "ayn" (ع), "shin" (ش) va "qof" (ق) harflari bilan yoziladi. Baytning ikkinchi misrasidan *Ishq so'zi ayn bilan boshlanib qof harfi bilan yakunlanadi*, degan mazmun anglashiladi. Lekin uning zamirida *Muhabbatning boshlanishi soz, yaxshi, ammo nihoyasi g'am* degan fikr yashiringan. Bu fikrni anglash uchun birinchi misradagi *mehr* va *ko'hi g'am* so'zlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. *Mehr*²² so'zi *quyosh*, *ishq*, *sevgi* ma'nolariga ega. Arab tilida *ayn*²³ so'zi *ko'z*, *buloq*, *mohiyat*, *o'xshashlik*, *oltin*, *soz*, *yaxshi*, *quyosh* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Yuqoridagi misollarda arab alifbosi harflari bilan yoziladigan biror so'zga ishoralar qilindi. Lekin shunday misollarni ham uchratish mumkinki, bunda biror predmetga xos belgi arab harflari shakliga to'g'ridan-to'g'ri o'xshatilaveradi. Shoir "*Ma'shuqa chigal bo'lgan sochlarini tarayotganda, soch jingalaklari zanjirdek bir-biriga ulanib, bog'lanib qoldi, soch chigallari xuddi "mim"ga, ikki zulfi "lom"ga, tarog' esa "sin"ga o'xshaydi*" mazmunidagi badiiy tasvirni quyidagi baytga singdiradi:

Tararda uqdalig' zulfin musalsal ayladi chinlar,

Girih "mim" ikki zulfi ikki "lom" iynak tarog' "sin"lar (G'S,175)

Haqiqatan ham, "mim" (م) harfi sochdagi chigal tugunlarni, "lom" (ل) harfi esa zulflarni, "sin" (س) harfi esa tarog'ni eslatadi. Bu an'anaviy tashbeh Navoiy ijodida yangicha ma'no kasb etgan.

²² Navoiy asarlari lug'ati. It. –Toshkent, 1972. 389-б.

²³ Ўша китоб, 37-б.

Ba'zan arab harflari matnda majoziy ma'noda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, *alif* arab alifbosidagi birinchi harf, "abjad" hisobida bir, majoziy ma'noda esa *tik qomat, tik shakl, kishining badaniga (aksar yuziga) chekilgan xol (dog')ning tikka shakli*²⁴. Shoir hijron azobidagi oshiqning tilka-pora bo'lgan jismini, ruhiy azobini ifodalash uchun kitobot san'atiga murojaat etadi. *Alif* so'zi orqali oshiq badanidagi jarohat izlariga hamda yorning sarv qaddiga tashbeh beriladi. Masalan:

Zor jismimda qiliching zaxmi har yon muxtalif,

Har biridur sarv qadding hasratidin bir alif. (G'S,322)

Shunday misollar ham uchraydiki, arab harflariga biror predmet qiyoslanadi, ya'ni arab harflari o'xshatilayotgan narsaga aylanadi:

Har "alif" sarv edi,"he" g'unchau "doli" sunbul

Demayin nomaki bir toza guliston toptim (G'S, 425)

Bu baytda *"alif" sarvga,"he" g'unchaga, "dol" sunbulga* o'xshatiladi. Ushbu g'azalda yorining maktubidan hayajonga tushgan oshiq holati tasvirlangan bo'lib, lirik qahramon uchun noma gulistonni, go'zal tarzda insho etilgan arab harflari esa ushbu chamanzordagi gul va o'simliklarni yodga soladi. Demak, bu o'rinda kitobot san'atiga xos usul aks tarzda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy o'z g'azallarida *alif, lom, be, xe, jim, nun, dol, ayn, qof, mim, sin, nun, he (hoi havvaz)* harflari vositasida kitobot san'atini qo'llab, ajoyib va bezavol lavhalar, betakror go'zal baytlar yaratgan. Shoir ijodini sinchiklab o'rganish bilan bunga yana bir bor amin bo'lamiz.

NAVOIY G'AZALLARIDA TAZOD(ANTITEZA)

Navoiy lirikasida tom ma'noda yangi mohiyat kasb etgan an'anaviy san'atlardan biri tazod hisoblanadi²⁵. Shoir ushbu usulning xilma-xil stilistik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, ta'sirchan badiiy timsollar, betakror lavhalar yaratgan.

²⁴ Navoiy asarlari lug'ati. –Toshkent, 1972. 41-б.

²⁵ Мақсуд Шайхзода. Тазод. Асарлар. IV жилд. –Т., 1972. 62-б.; Исхоков Ё. Навоий поэтикаси. –Т.: ФАН, 1983. 164-б.

Tazod so'zi arabcha "zid qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi²⁶. Tazod badiiy adabiyotda ma'lum bir uslubiy vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan murakkab stilistik vosita bo'lib, mumtoz she'riyatimizda qadimdan keng qo'llanilgan. Uslubiy vositalar ichida bu usul qo'llanish mahsuldorligi jihatidan yuqori o'rinda turadi. Ilmiy manbalarda tazod san'ati antiteza istilohi bilan ham qo'llanadi²⁷. Bu san'at klassik adabiyotda mutobiqa, tiboq, tadbiiq, takofu, ittizod, mutazod kabi nomlar bilan ham atalib kelingan²⁸.

Tazodning asosiy vazifasi zidlash, ya'ni "logik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikr, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslashdir"²⁹. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda qiluvchi grammatik vositalar, shuningdek, ifodalilikning boshqa zidlash vositalari qo'llanadi. Shuning uchun ayrim tilshunoslar antiteza hodisasini ham shakl, ham mazmun bilan aloqador bo'lgan badiiy-tasvir vositasi deb qaraydi³⁰.

Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, ya'ni unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Bu hodisada uchinchi narsa bo'lmaydi. SHuning uchun ham antitezali nutq ko'rinishlari binarizatsiya usuli asosida shakllanadi va simmetrik xarakterga ega bo'ladi³¹.

Antiteza qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomonni bir-biriga bog'laydi va ular orqali aytilmoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlaydi³². Unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar va fikrlar natijasida nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan umumiy fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi.

Tazod usuli talabiga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb(timsol, tushuncha, jism, jarayon, holat, harakat va boshqalar) ning biri ikkinchisini rad etishi yoki inkor qilishi lozim. Shu bilan birga, bir-birini rad etuvchi ikki qutb o'rtasida

²⁶ Хожиаҳмедов А. Шеъррий санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарк , 1998. 83-б.

²⁷ Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983. 234-б.

²⁸ Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадий нутқида антитеза. Автореф. номз. дисс.-Тошкент, 2000.

²⁹ Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983. 234-б.

³⁰ Э.Ибрагимова. Бадий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. № 2, 2009 й., 90-б.

³¹ Мамажонов А. Услубий воситалар. Фарғона, 1996. 30-б.

³² Шукуров И. ва б. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1984.

qandaydir ichki va tashqi aloqa ham bo'ladi: ulardan biri ikkinchisini keltirib chiqaradi³³. Masalan:

*Navoiyyo, **kecha-kunduz** xatu yuzini tilab,*

***Shabona** navha bila nolai **sahar** toptim. (G'S, 426)*

Mazkur misolda **kecha kunduzga, shabona saharga** qarama-qarshi qo'yilyapti. Chunki yor hajrida o'rtangan oshiq tuni bilan nola qilib, yig'lab saharga yetishadi. Bu o'rinda tun va tong tushunchasi orqali visolga umid, ayni damda noumidlik ma'nosi ham ifodalangan. Bundan tashqari, baytda ma'shuqaning yuzi kunduzni bunyod etganidek, uning xati kechani bunyod etadi, mazmunini ham anglash mumkin.

Navoiy hayot ziddiyatlarini, bir-biriga qarama –qarshi bo'lgan manzara va hodisalarni, voqea va obrazlarni, his va tuyg'ularni tasvirlashda ko'pincha tazod usulini qo'llaydi va bu usul vositasida sub'ektning his va shuuri bilan tasvir ob'ektining ichki mohiyatini to'laroq va mukammalroq yoritishga erishadi.

G'azallarda leksik birliklar – antonimlar vositasida yaratilgan tazod namunalarini ko'plab uchratish mumkin:

*Agarchi o'lturubon yuz **tirikni** g'amzasidin,*

*Va lek jon topibon nuktasi bila yuz **o'lik**. (G'S, 345)*

Shoir baytda oshiq holatini ifodalovchi **o'lik** va **tirik** so'zlarini qarama –qarshi qo'yish orqali fikrning ta'sirchanligiga erishgan. Baytda o'lturubon va jon topibon singari harakat tushunchalari hamda **g'amza** va **nukta** singari mavhum tushunchalar ham o'zaro zidlangan bo'lib, ularga o'lik va tirik so'zlarining semalari ishora qilib turadi. G'amza va nukta so'zlarining zidlanishi faqat shu bayt uchungina xos bo'lib, kontekstual antonim hisoblanadi. Zero yor g'amzasi yuzta tirikni o'ldiradi, yorning chiroyli so'zlaridan esa yuzta o'likka jon ato etiladi.

Navoiy badiiy tasvirda ta'sirchanlikka erishish, ifoda ixchamligi va mantiqiyiligini ta'min etish maqsadida qarama-qarshi ma'noli so'zlardan , so'z birikmalaridan, forsiy izofalardan, iboralardan, ba'zi o'rinlarda gaplardan ham unumli foydalangan. Chunonchi:

a) antonim so'zlar:

³³ Хамидов З. Навоий бадий санъатлари. -Тошкент, 2001. 25-б.

*Bahor sensiz agar do'zax o'lsa tong ermas,
Behisht ichinda liqo bo'lmasa erur do'zax. (G'S, 126)*

yoki:

*Egriliklar esa zulfung harakoti ne ajab,
Kim yilonni harakat qilg'onida ko'rmish tuz. (G'S,235)*

b) qarama-qarshi tushunchali so'z birikmalari:

*G'arib kelmadi shirin labingg'a achchig' so'z,
Emas g'arib chuchuk meva bo'lsa xastag'a talx.(G'S,126)*

yoki:

*Shakar lablar tabassum qilg'onin ko'rgach ko'ngul berma,
Ki bedillarni achchig' yig'latur oxir bu shakkar xand. (G'S,133)*

v) ma'nosi zidlangan forsiy izofalar:

*Subhi vasling ichra tirguz xayli ushshoqingnikim,
Shomi hajr o'lturgali mendek siyah ro'ze kerak. (G'S, 350)*

yoki:

*Mayi vasl istama ko'p, ey ko'ngulkim,
Erur ul zahri hijron birla mamzuj. (G'S, 113)*

g) antonim iboralar:

*Ey, mening jonim olib yaxshilig'ing,
Beribon jon yana yaxshi qilig'ing. (G'S, 361)
Ne tong uzorim agar sorg'arib, qizordi yoshim,
Ki yuz qarolug'u isyon bila oqordi boshim.(G'S, 414)*

d) mazmunan zidlangan gaplar:

*Men jahondin kechtimu kechmas mening jonimdin el,
Men ilik jondin yudum, chekmas ilik qonimdin el. (G'S, 388)
Vaslingg'a yetay dedimu hajringg'a yo'luqtum,
Ummed ila keldim vale armon bila bordim. (G'S, 436)*

Navoiy g'azallarida tazodning tub mohiyatini belgilaydigan va shoirning bu boradagi ijodiy uslubini ko'rsatadigan muhim belgilardan biri bu usulning ishqiy mavzudan boshqa ijtimoiy mazmundagi she'rlarida ham keng va izchil qo'llanishidir.

Davr ruhiyatiga xos ziddiyatlarning ayrim tomonlarini fosh etishga bag'ishlangan g'azallar devonda ko'plab uchraydi. Yuqoridagi dastlabki misol ana shunday ruhda.

Alisher Navoiy g'azallarda tazod usulini tardu aks (xiazm)³⁴ shakli bilan uyg'unlashtirgan. Natijada, fikrning ta'sirchanligi ortgan va misralarning musiqiyligi ta'minlangan, shuningdek, bayt mazmunidagi yetakchi so'zga e'tibor qaratilgan .
Chunonchi:

Chunki ul bizni unutmog'ni sog'indi yaxshi ish,

Sen dog'i kel bir nafas oni sog'inmog'ni unut. (G'S, 91)

Ushbu baytda *unutmog'* va *sog'inmog'* fe'llari hamda *ul* va *biz* olmoshlari qarama-qarshi qo'yilgan. Ana shu leksik vositalar yordamida antiteza hosil qilingan. Unutmog' va sog'inmog' singari harakat kechimlari gapda sintaktik vazifasiga ko'ra farqlanadi va ular o'zaro to'ldiruvchi -kesim munosabatiga kirishgan.

Quyidagi misolda esa *yiroq* va *yaqin* tushunchalari bir-birini inkor etadi. Ushbu leksik birliklarning gapdagi tartibini va grammatik shakllarini o'zgartirish bilan tardu aks san'ati ham ifodalangan:

Bu yiroqliqdin yaqindur o'lgamen, vah, yorning

Istabon royin bo'lubturmen yaqinliqdin yiroq. (G'S, 335)

“G'aroyibus-sig'ar” devonidan o'rin olgan g'azallarda tazod san'ati turkiy, arabcha va forsha-tojikcha so'zlar asosida yaratilgan.

1. Turkiy so'zlar asosida yaratilgan tazod san'ati devonda quyidagi shakllarda uchraydi: ochit-chuchut (91), ichimdin-toshimni (98), o'lsa-tirguzgil (98), o'lu -qurug' (103), egri-tuz (235), yolg'on-chin (237), bosh-oyoq(269), borish-kelish (276), kecha-kunduz(351), mendin-sendin (349), o'luk-tirik (345), yaxshi-yomon (335), yiroq-yaqin (335), qaro-oq (335), kelgan-ketgan (417), tor-keng (362), urushsun-yarashsun (414).

Masalan:

Zamon eli gar urushsunu gar yarashsunlar,

Ki ne urushim alar birla boru ne yarashim (G'S, 414)

³⁴ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Андижон, 2002. 135-б.

baytida urushsun va yarashsun, urushim va yarashim kabi leksemalar qarama –qarshi qo'yilganki, ular vositasida shoir shaxsi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyat o'z ifodasini topgan. Navoiy o'z zamonasida ro'y berayotgan urush va nizolardan qanchalik iztirob chekishini ana shu ikki satrda to'laligicha namoyon qila olgan va bunga tazod vositasida erishgan.

2. Arabcha antonim so'zlar vositasida ham tazod san'atining xilma-xil namunalari yaratilgan:

Yuziga tushti zulf aylang nazora,

*Ki bo'ldi **kuf**r **imon** birla mamzuj. (G'S, 113)*

Ushbu baytda tazod usuli laff va nashr san'atining bir qismi sifatida yuzaga chiqqan. Chunki birinchi misrada yuz va zulf so'zlari orqali laff ifodalangan bo'lib, ular haqidagi hukm – nashr keyingi misrada **kuf**r va **imon** singari diniy tushunchalar orqali ifoda topgan. Bilamizki, islom aqidalariga ko'ra yuzning ma'lum qismi hijob bilan yashiriladi. Bu o'rinda ana shu holatga ishora bo'lib, yor yuziga tushgan zulf uni qisman yashiradi, ya'ni kufni yo'qotadi, shuning uchun ma'shuqa yuziga kuf, zulfiga nisbatan imon tushunchasi qo'llanadi.

G'azallarda arabcha leksik birliklar orqali yuzaga chiqqan antonim juftliklarni ko'plab uchratish mumkin: kuf-r-imon (113), hajr-vasl (237), jannat-do'zax (248), botin-zohir(335), visol-firoq (426), tasbih-zunnor (370).

3. Alisher Navoiy tazod san'atini forsiy so'zlar asosida ham yaratadi: shah-darvesh (28), do'st-dushman (105), shoh-gado (133), xazon-bahor (173), gado-shah (203), kofur-mushk (368), past-tul (392). Chunonchi:

Yerga soching sudralur kulbamga kirsang xam bo'lub,

*Mehr **past** o'lg'on zamon andoqki soya topqay **tul**. (G'S, 392)*

Yuqoridagi misoldan ko'rinadiki, shoir forsha-tojikcha **past** va **tul** so'zlarini bir-biriga zidlash orqali antiteza hosil qilgan. Mazkur baytda antiteza usuli mumtoz adabiyotda keng qo'llanadigan tamsil san'ati vositasida yuzaga chiqqan. Oshiq kulbasiga egilib kirishi natijasida yor sochlarining yerga sudralishi quyosh pastlaganda soylarning uzayishi kabi tabiat hodisasi bilan qiyoslanadi, ya'ni birinchi misradagi holat hayotiy misol yordamida dalillanadi. Bu o'rinda past va tul

so'zlarining "bosh ma'noli sememasi bilan hosila ma'noli sememasi orasidagi antonimlik"³⁵ ka asoslanilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Navoiy har doim zid tushunchani ifodalovchi so'zlarni bir til birliklari asosida hosil qilmasdan, ba'zan turkiy so'z forsiy so'zga, arabcha so'z forsha-tojikcha so'zga qarama-qarshi qo'yiladi:

a) turkiy va forsha so'zlar zidlanadi: o't^t-yax^f(126), chuchuk^t-talx^f (126), sog^t-bemor^f (200), tiyra^f-yorug^t (235), shah^f-qul^t (301);

b) arabcha va forsha so'zlar zidlanadi: kisvat^a-zarbaft^f (28), zohir^a-nihon^f (31), sho'xlug^{f-t}-adab^a (69), behisht^f – do'zax^a (126), shabona^f –sahar^a (426).

Masalan, quyidagi misolda arabcha va forsha so'zlarning ma'nolari o'zaro zidlangan:

*Har gadokim, bo'riyoyi faqr erur **kisvat** ango,*

*Saltanat **zarbaftidin** hojat emas xil'at ango. (G'S, 28)*

Ushbu baytda shoir arabcha kisvat so'ziga fors tilidagi zarbaft so'zini qarama-qarshi qo'yib tazod san'atini yaratadi. Kisvat va zarbaft³⁶ ham ustki kiyim –bosh hisoblanadi, ammo ulardan biri gadoga, ikkinchisi saltanat hukmdoriga nisbat beriladiki, natijada har ikki leksema ana shu semalari bilan zidlik hosil qiladi. 13 baytdan iborat ushbu g'azalda shoh va darvesh so'zlari har bir baytda qo'llanilib, o'ziga xos tazod hosil qilinadi. Kisvat va zarbaft so'zlarining zidlanishiga ham shoh va darvesh so'zlari ishora qilib turadi.

Navoiy g'azallarida turli so'z turkumlariga oid "antonimik juft"³⁷larni qo'llaydi:

1. Ot antonimlar:

Ranju za'fim bo'lmish andoqkim so'rar kelgan ulus,

*Holim aylarlar **savol**, ammo eshitmaslar **javob**. (G'S, 61)*

2. Sifat antonimlar:

Iki g'unchang ermas, ey gulchehra, teng

*Og'zing asru **toru** ko'nglung asru keng. (G'S, 362)*

³⁵ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон. 123-б.

³⁶ Навоий асарлари луғати. I т. –Тошкент, 1972. 313-, 244-б.

³⁷ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон. 120-б.

3. Olmosh antonimlar:

Bukun ul nav'ki mendin bosh erur sendin tig',

Tongla ham bo'lg'usidur mendin ilig sendin etak. (G'S, 349)

Ma'lumki, son va olmosh so'z turkumlarida antonimlik umuman yo'q³⁸. Chunki olmoshlar orasidagi farq –qarama-qarshi yo'nalishda emas, balki bir yo'nalishda yotuvchi masofa oralig'ida deb qaraladi³⁹. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda men-sen, sen-ul olmoshlari zidlanishi mumkin⁴⁰. Bu olmoshlarning zidligi ular bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi so'zlar semasi orqali yuzaga chiqadi.

4. Fe'l antonimlar:

Shahdi ayshing zahr etar gardun, sen ushbu jomdin,

Xoh komingni ochit, xohi mazoqingni chuchut. (G'S, 91)

G'azallarda ravish va son so'z turkumidan ifodalangan antitezalar deyarli uchramaydi. Navoiy asosan asosan ot va fe'l leksemalar asosida antiteza hosil qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy "G'aroyibus-sig'ar" devoniga kiritilgan g'azallarda zid ma'noli so'zlar asosida tazod (antiteza) usulini qo'llar ekan, fikrni badiiy jihatdan mukammal ifodalashga, shakl va mazmun rang-barangligiga alohida e'tibor qaratgan. Natijada, g'azallarda kuchli emotsionallikka hamda uslubiy ixchamlik, badiiy ravonlikka erishgan.

NAVOIY IJODIDA LIBOS NOMLARI

Jamiyat hayotining barcha jabhalari jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda ishlab chiqarishning hamma sohalarida ham ijodiy raqobatni kuzatish mumkin. Ayniqsa, insonning kundalik hayoti uchun g'oyat zarur hisoblangan libos va matolar dizayni sohasida o'zgacha ijodkorlik, izlanuvchanlik yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, milliy iftixorimiz bo'lgan o'zbek matolariga xalqaro miqyosda ham qiziqish juda katta. Ushbu soha ijodkorlari milliy kiyim va matolarimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ular asosida zamonaviy urfdagi libos namunalarni

³⁸ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон. 121-б.

³⁹ Ўша китоб, 123-б.

⁴⁰ Ҳамидов З. Навоий бадий санъатлари. -Тошкент, 2001. 30-б.

taqdim etishmoqda. Shunday ekan, xalqimizning milliy qadriyatlariga aylangan mato va libos nomlarining tarixiy variantlarini o'rganish diqqatga loyiq.

So'z mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoiy asarlarida ko'plab milliy libos va matolarning tarixiy nomlarini uchratish mumkin. Shoir yashagan davr uchun xos bo'lgan libos nomlari bir qator leksemalar vositasida ifodalangan bo'lib, ular Navoiy asarlarining izohli lug'atida 110 dan ortiq.

Leksikografiya tarixidan ma'lumki, lug'atlar har xil maqsadda tuziladi. Ana shunday lug'atlardan biri ideografik lug'atlardir. Bunday lug'atlarning maqsadi borliq elementlari haqidagi ma'lum tushuncha qanday moddiy vositalar yordami bilan ifodalanishini ochib berishdir. Ushbu lug'at so'zlarni ma'no xususiyatlariga ko'ra ma'lum guruhlarga ajratib o'rganadi. Bunday lug'atlar mavzuiy lug'atlar yoki tezaurus lug'atlar deb ham yuritiladi. Ushbu kichik tadqiqot asosida Navoiy she'riyatida qo'llangan libos arxisemali leksik birliklarning mavzuiy lug'atini tuzish uchun harakat qilindi. Mazkur leksemalarni muayyan semalari asosida mazmuniy jihatdan tasniflab o'rganish mumkin.

Shoir ijodiga xos libos tushunchali leksemalarni tananing qaysi qismiga tegishliligiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bosh kiyim nomlari:

a) erkaklar bosh kiyimi: aloqa, amoma, bo'rk, dastor, kallapo'sh, kuloh, sepech, tark, navro'ziy;

b) ayollar bosh kiyimi: burunchak, gardyazdiy, lachak, miqna', nimtark, sarandoz, shol, yalov, yog'lig':

*Sochida shabnam **burunchak**, ey ko'ngul, ermas ajab,*

Sunbul uzra gar tushar shabnam taajjub qilmag'il. (N.SH.)

Navoiy voqif o'l gardun arusidinki, qasdingg'a

*Ochar gah shomdin giso', kiyar gah subhdin **miqna'**. (G'.S.)*

*Qo'yki moviy **yog'lig'**ingni yuzdin olmay bir zamon,*

Ne uchunkim, xush ko'rinurzarvaraq uzra shamat. (B.V.)

2. Ustki kiyim nomlari: *ablaq, abo, alocha, xil'at, davoj, dalq, sarig'lig' dalq, dalqi xizrvash, yelak, yorg'og', javshan, javshani zarkor, janda, jiba, jubba, joma, zarbaft, zirih, iksun, ipkin, kamar, kamarband, kapanak, katon, katoniy, kiygulik, kisvat, kish, kutun, ko'ktemur, ko'nglak, libos, lihof, malbusot, moshob, muraqqa', oltoyi, os, ohanjamo, palos, palosi idbor, parand, pashmin kisvat, pashmina, pirohan, po'sh, raxt, rido, saqarlot, tanpo'sh, tanura, terlik, tunbon, to'rma, to'rqa, xafton, sarpo, xirqa, chopon, chorpora to'n, chorqab, shirdog', shol, qabo, qamis, hulal, hulla.*

Masalan, **palos** so'zi Navoiy asarlarida shunday ma'nolarda qo'llanadi: PALOS – f. 1. Jundan to'qilgan jo'nroq kiyim, arzon kiyim; 2. Kigiz, namat, sholcha; **Palosi idbor** – Baxtsizlik to'ni, kambag'al to'ni:

Chu yopsa na'shim uzra palosi idborim,

Belin tong'org'a palos uzra yaxshi zunnorim. (N.SH)

Ba'zi libos nomlari palosi idbor singari doimiy aniqlovchilari bilan qo'llanadi. Masalan:

Sabuhiy vaqti gul ochilg'onin naylayki, ul yotmish,

O'zini g'uncha yanglig' chirmabon gulgun lihofda. (B.V.)

Lihof-arabcha so'z bo'lib, kiyim, yopinchiq va ko'rpa degan ma'nolarni ifodalaydi. Mazkur baytda *gulgun lihof*-qizil kiyim ma'nosida qo'llangan. Navoiy asarlarida lihof so'zi deyarli gulgun so'zining aniqlanmishi sifatida qo'llanadi.

Alisher Navoiy asarlarida kiyim detallarini nomlovchi quyidagi atamalarni ham uchratish mumkin:

baxya	<i>chopon qirg'og'iga tikilgan jiyak</i>
kamar	<i>belbog'</i>
ostin	<i>yeng</i>
shudda	<i>ipakdan qilingan bog'ich</i>
etak	<i>kiyim o'nguri</i>
jayb	<i>kiyim yoqasi, cho'ntak</i>
farisa	<i>to'n adipi, to'n astariga qiyiq qilib tikilgan tutiq, paroviz</i>

Chunonchi:

Ne qiyig' erkin ul oy to'nidakim, tikkan chog'i,

Mehr anga zarrishta etkurmish farisa osmon. (B.V.)

3. Oyoq kiyimi nomlari (faqat 5 ta): *kalish, na'l, na'layn (1 juft kavush), niol (kavushlar), paytoba (paytava).*

Navoiy ijodida poshnaga o'rnatiladigan tasma– **qabol** so'zini ham uchratish mumkin.

Alisher Navoiy o'z asarlarida mato nomlarini ifodalovchi qator leksik birliklardan ham foydalangan bo'lib, ular quyidagilar:

Mato nomlari	Ma'nosi
<i>atlas</i>	<i>ipakdan to'qilgan mato</i>
<i>volo</i>	<i>ipakdan to'qilgan mayin mato</i>
<i>debaq</i>	<i>qimmatli mato</i>
<i>debo</i>	<i>naqshli ipak mato</i>
<i>javak atlas</i>	<i>arpagulli atlas</i>
<i>jins</i>	<i>mato, kiyimlik</i>
<i>zarvaraq</i>	<i>zarli kiyim</i>
<i>karbos</i>	<i>paxtali dag'al mato</i>
<i>katun</i>	<i>bir turli gazlama</i>
<i>kimxo</i>	<i>ipakdan to'qilgan mato</i>
<i>nasij</i>	<i>mato, to'qima</i>
<i>pari magas</i>	<i>ipakdan to'qilgan ingichka yo'lli mato</i>
<i>parniyon</i>	<i>ipakli, yupqa guldor mato</i>
<i>sayfur</i>	<i>qimmatbaho, yupqa ipakli mato</i>
<i>xazz</i>	<i>ipakli mato</i>
<i>chavuh atlas</i>	<i>qora atlas</i>
<i>o'rmak</i>	<i>tuya junidan to'qilgan mato</i>

Masalan:

Kishu o'rmak qaydidin o't, ayshni favt etmakim,

Kish qaroroq, tulku, o'tmak yupqaroq moshob erur. (G'.S.)

Shoir tomonidan qo'llangan libos arxisemali leksemalarni lug'aviy ma'nolariga asoslanib mavsumiy jihatdan ham 2 guruhga ajratish mumkin:

Qishki mavsumda kiyiladigan		Yozgi mavsumda kiyiladigan	
Libos va mato nomlari	Ma'nosi	Libos va mato nomlari	Ma'nosi
<i>abo</i>	<i>jundan to'qilgan darveshlar kiyimi</i>	<i>burunchak</i>	<i>ro'mol</i>
<i>oltoy</i>	<i>qizil tulki, oltoy tulkisi terisidan ishlangan po'stin</i>	<i>gardyazdiy</i>	<i>to'r ro'molga o'xshash, nafis ro'mol</i>
<i>qoqim</i>	<i>oq junli hayvon terisidan tikilgan kiyim</i>	<i>lachak</i>	<i>chorsi ro'mol, dakana</i>
<i>pashmina</i>	<i>jun matodan tikilgan kiyim</i>	<i>hulla</i>	<i>bezakli, nafis va nozik kiyim, ipakli nafis mato</i>
<i>saqarlot</i>	<i>jundan to'qilgan kiyimlik</i>	<i>kimxo</i>	<i>ipakdan to'qilgan mato</i>
<i>kish</i>	<i>qora po'stin, qunduz po'stin</i>	<i>atlas</i>	<i>ipakdan to'qilgan mayin mato</i>
<i>yorg'og'</i>	<i>tuki to'kilgan po'stin</i>	<i>parand</i>	<i>ipakdan to'qilgan guldor, yupqa mato</i>
<i>shol</i>	<i>yungdan to'qilgan kiyim, ro'mol</i>	<i>sayfur</i>	<i>yupqa, ipakli mato</i>

Shoir she'riyatida qo'llangan kiyimlik nomlarini ishlangan materialiga ko'ra ham tasniflash maqsadga muvofiq. Masalan, bu davrga mansub liboslar uchun *bo'z, atlas, ipakli, zarli, jundan va tuya yungidan to'qilgan, teridan ishlangan, to'r ko'rinishidagi, po'stin ko'rinishidagi, paxta va kanopdan to'qilgan* gazlamalar ishlatilgan. Harbiy kiyimlar esa metallardan tayyorlangan.

Navoiy asarlarining izohli lug'atida turli ijtimoiy tabaqa vakillari, shuningdek, muayyan soha va kasb-kor bilan shug'ullanuvchilarning kiyim-boshlari nomi ham berilganki, ular orqali shoir o'zi yashagan davr va ijtimoiy muhit haqida ma'lumot berishga harakat qilgan, bundan tashqari turli tabaqa vakillarining badiiy obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan:

1. Darvesh va qalandarlar kiyimi: *abo, dalq, janda, kapanak, moshob, muraqqa', rido, xirqa:*

Saltanat xil'atidin ortuq erur dayrda mast,

*Sudrasam boda gadolig'ida yirtuq **kapanak**. (G'.S.)*

Bu o'rinda *saltanat xil'ati* va *yirtiq kapanak* o'zaro zidlangan, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik tazod san'ati asosida ifodalangan.

2. Shohona kiyimlar va qimmatbaho matolar: *dastor, jubba, zarbaft, zarvara, iksunu debo, ipkin, kimxo, sayfur, xil'at, zarbaft chorqab.*

3. G'arib va qashshoqlar kiyimi, oddiy matolar nomi: *yarg'og', karbos, katon, kutun, palos, palosi idbor, chorpora to'n, moshob:*

Silk etak zar risht birla gul to'qulg'on jinsdin,

*Kim emas tori chu bo'lg'on vuslilig' **moshobdek**. (G'.S.)*

4. Harbiy kiyimlar: *javshan(sovut), jiba(metaldan to'qib yasalgan qadimiy urush kiyimi, sovut), zirih(o'q va tig' o'tmaydigan urush kiyimi, sovut), ko'ktemur (qadimiy urush kiyimlaridan bir xili):*

*Ish kunikim, **ko'ktemur** birla takovar gardidin,*

Yer falak rangin tutub, kiygay malak er kisvatin. (B. V.)

5. Temirchilar kiyimi: *ohanjoma, tanura.*

6. Hofizlar kiyimi: *kisvati huffoz.*

7. G'ayridinlar kiyimi: *kisvati kuffor(kofirlar kiyimi)*

Shoir adabiy merosida libos va mato nomlarining eng katta guruhini forscha so'zlar tashkil qiladi. Ularning soni 50 dan ortiq. Arab tilidan o'tgan kiyim nomlari esa 40 ga yaqin. Turkiy til birliklari bo'lgan libos nomlari 30 dan ortiq. Jumladan:

a) forsha kiyim nomlari: baxya, volo, gardyazdiy, davoj, dastor, debaq, debo, jevak, janda, joma, zarbaft, zarvara, zirih, pirohan va boshqalar:

*Shom vasling topmog'ong'a subhi sodiq har sahar,
Panjayi xurshid ila **pirohaning** aylar qabo. (N.SH.)*

*Sabzada savsan yarashqondek muloyimdur, base
Sho'xi sabzo ranglarning rangiga **debo** binafsh. (G'.S.)*

b) arabcha leksemalar: ablaq, abo, aloqa, amoma, axzar, dalq, jins, jubba, iksun, katun, kutun, libos, lihof, xil'at va boshqalar:

*Sovug' ohimdin o'lsang betahammul ko'zga keltur yuz
Ki, anda **ablaq** etmishmen murattab tegrasi qunduz. (N.SH.)*

*Erur egningda axzar **xil'at** ul nav'
Ki, gulbun bargidin to'n qilsa nasrin. (G'.S.)*

v) turkiy tildagi libos nomlari: to'n, alocha, atlas, burunchak, bo'rk, yelak, yorg'og', jiba, ipkin, ko'nglak, lachak, oltoyi, os, saqarlot, terlik, chopon:

*Erur chamanda yuzungning gadoyi oqgulkim,
Ko'rundi borcha yomog'lig' **choponi** uzra momug'. (B.V.)*

*Ko'nglak o'rniga **yelak** kiyding hamono, ey quyosh
Kim, yadibayzog'a mone' bo'lmaq'ay har sori eng.(B.V.)*

Yelak –yengil, yengsiz ustki kiyim. Yoki:

*Tun uzori oydinu oydingda subh erkinmu,
Vayo sochingda burunchak uza **lachakmu** ekan. (G'.S.)*

Lachak – xotin-qizlarning boshiga o'raydigan chorsi, ro'mol, dakana. Qo'qon hududi shevalarida lachak so'zi saqlangan bo'lib, faqat fonetik jihatdan o'zgargan, ya'ni lakicha shaklida qo'llangan. Lakicha ro'molni boshning tepa qismiga dol qo'yib o'rash. Ro'mol o'rashning bu turi unutilgani uchun bo'lsa kerak, bugungi kunda deyarli uchramaydi. Asosan raqqosalar ro'molni ana shunday o'raydilar.

Alisher Navoiy ayrim libos va mato nomlarining fonetik variantlarini ham qo'llagan:

burunchak – buranchak

davoj – davvoj

karbos – kirbos

katon– katton-(katun)

kish – kesh

kulah – kuloh

pirohan – pirahan

chopon – chapan

yalov – yolov

Masalan:

Kim kafanni yod etar, andin o'luk ogohroq,

*Gar libosin bilsakim, erur **katon** yoxud **katun**. (G'.S.)*

*Asrading **katton** kafan qilmoq uchun ne sudkim,*

Hashr bozorida beqiyamatdurur mundoq mato'. (G'.S.)

*Fig'onkim, oyni yod etmak zarar qildi **katonimg'a**. (B.V.)*

Mazkur misrada katon matosi haqidagi xalq tasavvuriga ishora qilinmoqda: katon go'yo oydinga chidamay tez yirtilar emish. Yuqoridagi baytlar mazmunidan shuni anglash mumkinki, Navoiy yashagan davrda **katon**, **katun**, **katton** matolari asosan kafanlik uchun ishlatilgan. Katon matosining oydinga chidamay tez yirtilishi ham balki shundandir. Chunki bu matolar qorong'u qabrda mayit uchun kiyimlik qiladi, xolos. Bizningcha, xalq **oydin** so'zini "yorug'lik" ma'nosida qo'llagan bo'lsa, ajab emas.

Navoiy asarlarida ayrim libos nomlari muayyan aniqlovchi bilan qo'llangan: *sarig'lig' dalq, dalqi xizrvash, debo binafsh, javak atlas, palosi idbor, fo'tai zarbaft, zarbaft xil'at, hullai ol, chiniy hulla, axzar xil'at, gulgul libos, gulgun ko'nglak, qizil*

fo'ta, limuyi bo'rk, lojuvard atlas, moviy katon, noranji libos, obgun kisvat, sarig' bo'rk, siymgun libos, shabgun hulla, yashil to'n va boshqalar.

Navoiy ijodida qo'llangan libos nomlari miqdorini so'zning birinchi harfi asosida quyidagicha belgilash mumkin: *A-5ta, B-3ta, V-1ta, G-1ta, D-5ta, E-1ta, Yo-2ta, J-8ta, Z-3ta, I-2ta, Y-0, K-16ta, L-4ta, M-4ta, N-6ta, O-5ta, P-9ta, R-2ta, S-4ta, T-7ta, U-0, F-2ta, X-3ta, Ch-3ta, Sh – 3ta, E-1ta, Yu-0, Ya-1ta, O'-1ta, Q-4ta, G'-0, H-2ta.*

Ko'rinib turibdiki, Navoiy she'riyatida qo'llangan kiyim-kechak nomlarining eng ko'pi K harfi bilan boshlanadi. Y, U, Yu, G' harflari bilan boshlanuvchi kiyim va gazlamalar nomi deyarli nomi uchramaydi.

“G'aroyibus-sig'ar” devonidan tanlab olingan misollar asosida shuni aytish mumkinki, g'azallarda *xil'at, to'n, bar, libos, ko'nglak, yilak, fo'ta, harir, bo'rk, atlas, katon, kisvat, parda, hulla* singari libos arxisemali leksemalar qo'llanish chastotasining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

X U L O S A

Mazkur o'quv qo'llanmada Navoiy g'azallarining ayrim leksik xususiyatlari tadqiq etildi, shuningdek, she'riy ifodaning majoziy usullaridan bo'lgan badiiy tasvir vositalarining shoir g'azallari uchun eng xarakterli jihatlari lisoniy tahlil etildi.

Alisher Navoiydek buyuk so'z sohibining lug'at boyligi salmog'ini, so'zga bo'lgan munosabatini birgina rang bildiruvchi leksik birliklar misolida ko'rsatish mumkin. I jildlik "Navoiy asarlari lug'ati"da shoir asarlarida qo'llangan 100dan ortiq rang-tus bildiruvchi leksemalarning ma'nosi izohlangan bo'lib, ushbu leksik birliklar *oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, sapsar, kulrang, ola-bula, qora* singari umumlashtiruvchi sememalari bilan muayyan paradigmalarda hosil qiladi. Ushbu birliklar muayyan rang tushunchasini ifodalashiga ko'ra bir paradigma hosil qilsa ham, lekin paradigma a'zolarining har qaysisi differensial semalari bilan farqlanishi kuzatildi. Shuningdek, Navoiy she'riyatida qo'llangan libos arxisemali leksemalarning paradigmatic munosabatlari ham o'rganildi.

G'azallarda maqollar mazmunan g'azal baytining muayyan misrasida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun keltirilgan. Maqol ifoda etilayotgan ma'lum fikr bilan mazmunan qiyoslanar ekan, baytda "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo'ldi" singari jumlar qo'llangan. Shoir g'azallarida maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida keltiriladi. Bunday baytlarni shakllantiruvchi gaplar o'zaro sabab-natija, qiyos va o'xshatish munosabatlarini ifodalaydi. Baytda sabab –natija munosabati ifodalansa, ikkinchi misra *kim bog'lovchisi* yordamida shakllantiriladi, o'xshatish munosabatida esa ikkinchi misra *o'ylakim bog'lovchisi* bilan boshlanadi.

Navoiy she'riyatida maqollarga nisbatan iboralar ko'proq qo'llangan. Chunki fikrni obrazli qilib ifodalashda iboralarning uslubiy imkoniyatlari kengroq. G'azallarda xalq iboralarining *tilimni lol etib, olur hushingni, jon yetti og'zing'a, mashaqqat chektim, jon taloshur, silk etak, kulini ko'kka sovurding, boshga chiqmoq, ko'zum nazzoradin to'rt o'ldi, toshdek ko'nglin oning mum qil, yuz*

qarolig', oqardi boshim, ko'nglum ochilur, bersa emdi pand, jon berib, iki yuzlik shakllarini uchratish mumkin

Navoiy she'riyatida laff va nashr eng ko'p qo'llangan san'atlardan biri bo'lib, bu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini keltirib, keyin ular haqidagi hukmni bayon qilishga asoslanadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir. Laff va nashr san'ati asosida tashbih yoki mubolag'a yotadi. Ana shu nuqtai nazardan ushbu san'atni yashirin o'xshatish deb ham atash mumkin.

Navoiy g'azallarida *alif, lom, be, xe, jim, nun, dol, ayn, qof, mim, sin, nun, he (hoyi havvaz)* harflari vositasida yaratilgan kitobot san'atining ajoyib namunalari uchratish mumkin.

Navoiy "G'aroyibus-sig'ar" devoniga kiritilgan g'azallarda zid ma'noli so'zlar asosida antiteza (tazod) usulini qo'llar ekan, fikrni badiiy jihatdan mukammal ifodalashga, shakl va mazmun rang-barangligiga alohida e'tibor qaratgan. Natijada, g'azallarda kuchli emotsionallikka hamda uslubiy ixchamlik, badiiy ravonlikka erishilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy ijodi badiiyatini o'rganish orqali shoirning beqiyos iste'dod sohibi, badiiy so'z ustasi sifatida tilimiz boyliklaridan naqadar mohirona foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, u yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlaganini emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratiladi. Bu jihatdan Navoiy hazratlarining benazirligiga shubha yo'q.

NAVOIY SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN RANG NOMLARINING LUG'ATI

A

- Ablaq – a. 1. Ola-bula, oq-qora tus.
Abrash – a. Qizil ola yoki qora ola tus.
Abyaz – a. Oq, oppoq.
Adham – a. Qora, qora to'riq ot.
Azraq –a. Ko'k tus, yashil.
Alocha – Olacha, ola-bula.
Arg'avongun – f. maj. Qizil.
Arg'avoniy – f. Arg'uvon rangli, to'q qizil.
Arqam –a. 1. Olachipor.
Asfar – a. Sariq, sap-sariq, juda sariq.
Axzar – a. Ko'm-ko'k, yashil.
Axzarvash – a.-f. Yashiltob.
Axzargun – a.-f. Yashil rangli.
Axzariy – a. Yashil rangli, ko'kka bo'yalgan.
Ahmar – a. Qip-qizil – qizil.

B

- Bayoz – a. 1. Oq, oqlik;
Bayzo – a. 1. O'ta oq;
Bayzogun – a.-q. Oq rangli, yaltiroq.
Baqam – a. Qizil bo'yoq olinadigan daraxt; qizil bo'yoq.
Binafsh, binafsha – 1. Sapsar (savsan) rang.
Binafshfom – f. Binafsha rang, sapsar rang.

G

- Gulgaz – f. Ko'kimtir tovlanadigan qizil.
Gul-gul – f. Chaman-chaman, qip-qizil va juda chiroyli, guldor.
Gulgun – f. Gulrang, pushtirang.

Gulguna – f. 2. Qizil.

Gulgunpo'sh – f. Qizil kiyimli, qizil kiygan; Qip-qizil.

Gulnor –f. 2. maj. Qip-qizil.

Gulnoriy – f. Qizil rangli, anor guli rangli.

Gulrang – f. Gulrang, atirgul rangli; qizil.

Gulfom – f. ; q. Gulrang.

Yo

Yoqutiy – Yoqut rangli, qip-qizil.

Yoqutfom a-f. ; Yoqutiy.

Z

Zangor –f. 1. Zangori (rang).

Zarvash – f. Oltinga o'xshagan, sarig' tusli.

Zard f. Sarig', sarig'lik.

Zarpaykar –f. Zar tusli, oltin rangli.

Zarrina rang – zar tusli, sarig'.

Za'faroniy – a. Za'faron tusli, sarig'.

Zulmatfishon – a.-f. Qorong'ilik sochuvchi, qop-qora.

Zulmoniy – a. 2. Qora, qop-qora.

Zumrad – f. 2. maj. Yashil, sabz (rang)

Zumurradgun, zumurradfom –f. Zumrad rangli, yashil tusli.

K

Kahrabo – f. 2. maj. Sarig'.

Kahrabovash – f. Kahraboga o'xshash sarig'.

Kahrabogun – f. Kahrabo rang, kahraboday sarig'.

Kahraboliq –Tortishlik, jazb etishlik; sarg'ishlik.

Kofur – f. 2. maj. Oppoq tus.

Kofurgun –f. Oq rangli.

Kofuriy –f. Kofur tusli; oq tusli.

Kofurkirdor – f. Kofurmonand, oppoq.

Kohvash – f. Somon rang, somondek sarig'.

Kohiy – f. Somon tusli, sarig’.

Ko’kbo’z –1. Ko’kka moyil bo’z rang, bo’z ko’k.

L

La’l – a. 2. maj. Qip-qizil.

La’lgun – a.-f. La’l rangli, qizil, qip-qizil.

La’liy – a. 2. La’l rangli, qizil.

La’lfom – a.-f. ; q. La’lgun

Lemui – f. Lemu tusli, sarig’.

Lojuvard – f. 2. Ko’k tus.

Lojuvardiy –f. Lojuvard tusli, to’q moviy tusli.

Lolavor – f. Loladay qizil.

M

Miyno – f. 2. Ko’kimtir, havo rang.

Moviy – a. Ko’k rang, havo rang.

Mushk –f. 3. maj. Tim qora

Mushkin – f. 2. Mushk rangli, qora tusli.

Mushkfom – f. Mushk kabi qora tusli.

N

Nil – a. I. Ko’k bo’yoq.

Nilgun – Nil rang, ko’kimtir.

Niliy, nilin – f. Nil rangli, ko’k.

Nilufariy – f. Ko’k, ko’kimtir.

Noranj – a. 2. maj. Sarig’ tus.

Noranjvash – f. Noranjday sap-sarig’.

Noranjiy – f. Noranjga tegishli; sarig’ tusli.

Nofarmon – f. II. Binafsha rang.

O

Obgun – f. Ko’kimtir rang.

Obnus – 2. maj. Qora tus, qora.

Ol – a. Qizil, qizil tus.

Otashin – f. 2. O'tday qizil.

P

Palangiy – f. Qoplon terisiga o'xshash ola-bula.

Pesa –f. Olachipor.

R

Rummoniy – f. Anor rang, anorday qip-qizil.

S

Sabza –f. Maysa; yashillik, yashil rang.

Sabzagun –f. Yashil rang.

Sabzo – f. Sabz; yashil.

Savod – a. 1. Qoralik, qora tus.

Savsani –f. 1. Savsan (sapsar)rang; binafsha rang.

Sandarus – f. 2. maj. Sarig' tus.

Safid –f. Oq.

Safro – a. 1. Sarig';

Sahargun – a.-f. maj. Oq rang.

Siyoh – f. 1. Qora.

Siyahtob – f. Qoramtir, qora tovlanuvchi.

Siyahfom – f. Qora tusli; qop-qorong'i.

Surx –f. Qizil.

T

Tiyra –f. Qorong'u; qora; bulg'onch; g'am-g'ussali.

To'tagiy – f. Sabza, zangor.

X

Xazoniy – f. sarig' rangli.

Xazro, xuzro –a. Yashil, ko'kimtir, sabz.

Xokistariy – f. Kul rang.

Xuniy – f. Qizil rang.

Sh

Shabgun – f. Qop-qora.

Shabrang – f. Tim qora; qora ot.

Shafaqvash – a.-f. Shafaqday; qizil.

Shafaqgun – a.-f. Shafaq rang, qizil.

Shingarf – f. Qizil bo'yoq, qizil rang.

Shingarfiy – f. Qizil tusli, qizg'ish.

Q

Qiy – f. maj. Tim qora, o'ta qorong'ulik.

Qiyrgun – f. Qora tusli, qop-qorong'u.

Qirmiz – Qizil rang.

Qonlig' – 1. Qonli; **qizil**; qonga bulangan.

H

Humro, hamro – a. Qizil.

NAVOIY SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN LIBOS VA MATO NOMLARI LUG'ATI

A

Ablaq – a. 1. Ola-bula, oq-qora tus; 2. Ola po'stin.

Abo – a. Darvesh va qalandarlar kiyadigan, jun matodan tikilgan, kalta engil chopon.

Aloqa – a. Salla pechi.

Amoma – a. Salla, dastor.

Atlas – 1. Ipakdan to'qilgan mayin mato; 2. Tekis, silliq.

B

Baxya – f. Chopon qirg'og'iga tikilgan jiyak.

Burunchak, buranchak – 1. Nozik ipakdan to'qilgan ro'mol.

Bo'rk – qalpoq, telpak.

V

Volo – II f. Ipakdan to'qilgan mayin mato.

G

Gardiyazdiy –f. *Gardiyazdiy me'jar* –Ayollar yopinadigan to'r ro'molga o'xshash bir xil nafis ro'mol.

D

Davoj, davvoj – f. 1. Ko'rpa-to'shak, yopinchiq; 2. Paxtalik to'n.

Dalq –a. Darvishlar kiyimi. *Dalqi pashmina* –jundan to'qilgan kiyim; *Sarig'lig' dalq-malla to'n*; *Dalqi xizrvash* – ko'k to'n

Dastor –f. Salla

Debaq – f. Qiymatli mato, kiyimlik.

Debo – f. Nozik va nafis naqshlar solib to'qilgan ipak mato

Y

Yelak –yengil, yengsiz ustki kiyim.

Yo

Yorg'og' – 1. Tuki to'kilgan po'stin; 2. Xom teridan ishlangan hamyon, xaltacha.

Yog'lig' – Ro'mol, ro'molcha, yog'liq; durra.

J

Javak atlas – Arpa gulli atlas

Javshan – Sovut, zirih (simdan to'qilgan qadimgi urush kiyimlaridan biri)

Jayb - f. 1. Kiyimning yoqasi; 2. Cho'ntak, kissa; qo'yin; 3. maj. Ko'ngil, dil, dildagi muddao.

Janda –f. Yirtiq-yamoqli; Darvesh-qalandarlar to'ni; quroq to'n; gado kiyimi; Olabula kiyim.

Jiba –Metalldan to'qib yasalgan qadimgi urush kiyimi, jeva, sovut, temir kiyim.

Jins – a. 1. Tur, xil; 2. Mato, mol; kiyimlik.

Joma – f. To'n, kiyim.

Jubba –a. Hashamatli, keng, uzun va yenqli to'n; Jubbai sinjob – Sinjob(qizil tulki) terisidan tikilgan po'stin.

Z

Zarbaft – f. Zardan to'qilgan mato (kiyimlik); zarbof, zarvara, kimxob.

Zarvara –f. 1. Oltin qog'oz; 2. Tillaqosh; 3. Bargak; 4. Zarli mato (to'n, en)

Zirih – f. O'q va tig' o'tmaydigan urush kiyimi, sovut.

I

Iksun – a. Qora rangli ipak kiyim; hashamli kiyim.

Ipkin – Qora tusli va qimmatbaho bir nav kiyimlik, mato.

K

Kallapo'sh –f. Do'ppi.

Kamar – f. Belbog', kamar.

Kamarband –f. 1. Kamar, belga bog'lanadigan; 2. Xizmatkor, xodim.

Kapanak – f. Jundan qilingan ustki kiyim, jul (bosma) chakmon; darveshlarning jul kiyimi.

Karbos, kirbos –f. Jaydari paxta ipidan to'qilgan dag'al mata, bo'z.

Katon, katton – f. Kanopdan to'qilgan kiyimlik (katon go'yo oydinga chidamay, tez yirtilar emish).

Katoniy –a. Katondan tikilgan kiyim.

Katun – a. Bir turli gazlama.

Kafsh – f. Kavush.

Kimxo – f. Kimxob, ipakdan to'qilgan mato.

Kisvat –a. Kiyim, ust-bosh; **Kisvati kuffor** – kofirlar kiyimi.

Kish, kesh – f. 1. Terisi po'stin, yoqa va telpakka ishlatiladigan qora tusli hayvon (qunduzning bir turi); 2. Qora po'stin, qunduz po'stin.

Kulah, kuloh –f. Kuloh, bosh kiyimi; maj. Toj.

Kutun –a. Ingichka kanop yoki kandirdan to'qilgan kiyimlik.

Ko'ktemur – Qadimgi urush kiyimlaridan bir xili.

Ko'nglak – Ko'ylak

L

Lachak – Xotin-qizlarning boshiga o'raydigan chorsi, ro'mol, dakana.

Libos –a. Kiyim.

Libosot – a. Liboslar.

Lihof –a. 1. Kiyim; 2. Yopinchiq; 3. Ko'rpa.

M

Malbusot –a. Kiyiladigan narsalar, ust-bosh.

Miqna' – a. Xotinlar boshga o'raydigan ro'mol, parda.

Moshob – jundan to'qilgan, darvishlar va kambag'allar ust to'ni.

Muraqqa' – a.1. Yamalgan, quralgan (to'n haqida); 2. Darvishlar kiyadigan quroq to'n, janda; 3. Rasmi kitob.

N

Navro'ziy – Bir xil do'ppi.

Nasij – Kiyim uchun to'qilgan mato, to'qima.

Na'l – a. 1. Kavush; 2. Taqa; 3. Etik va kavushning tovoniga qoqiladigan, metalldan yasalgan bo'lak.; 4. Taqa shaklidagi tamg'a.

Na'layn – a. Bir juft kavush.

Nimtark – f. Bir xil bosh kiyimi.

Niol – Kavushlar, na'llar.

O

Oltoyi – Qizil tulki, oltoy tulkisi va uning terisidan ishlangan po'stin.

Os – Juni oq va yumshoq bir hayvon va uning terisidan ishlangan po'stin.

Ostar – f. Kiyimning ichki tomoni, astar.

Ostin – yeng, kiyim yengi.

Ohanjoma –f. Temir to'n, temirchilar ish kiyimi.

P

Palos – f. 1. Jundan to'qilgan jo'nroq kiyim, arzon kiyim; 2. Kigiz, namat, sholcha;

Palosi idbor – Baxtsizlik to'ni, kambag'allik to'ni.

Parand – f. Ipakdan to'qilgan yupqa kiyimlik.

Pari magas – f. 1. Chivin pari, qanoti; 2. Parpasha (ipakdan to'qilgan ingichka yo'lli bir xil mato).

Parniyon –f. Ipakdan to'qilgan guldor, yupqa mato.

Pashmin –f. Jundan to'qilgan, jundan ishlangan, junli; Pashmin kisvat – Jun matodan tikilgan kiyim.

Pashmina – f. 1. Jundan ishlangan, jundan to'qilgan mato; 2. Shunday matodan tikilgan kiyim.

Pirohan, pirahan – f. Ko'ylak.

Poytoba –f. Poytova.

Po'sh – f. 1. Kiyim, libos; 2. So'z birikmasida “kiyuvchi, kiygan, kiyim kiygan” ma'nolarida keladi.

R

Raxt – f. 1. Uy asbob-anjomi; 2. Kiyim-kechak; 3. Yo'l (safar) yuki.

Rido – a. 1. Shayxlar, darveshlar yelkasiga yopib yoki tashlab yuradigan choyshab kabi narsa.

S

Sayfur – a. Qimmatbaho yupqa ipakli mato.

Sarandoz – f. 1. Boshi quyi, enkaygan; 2. Kayfli; 3. Chaqqon, epchil, botir; 4. Boshga tashlanadigan katta ro'mol.

Saqarlot –jundan to'qilgan kiyimlik.

Sepech – f. O'ram, boshga ikki-uch aylantirib chulg'angan salla.

T

Tanpo'sh – f. Kiyim, yopinchiq.

Tanura – f. Fartuq (temirchilar kiyadi).

Tark – I. Urushda boshga kiyiladigan va jezdan ishlangan bosh kiyimi.

Terlik – Ichko'ylak.

Tunbon – f. Ishton, lozim.

To'rma – Ingichka jundan to'qilgan to'nlik.

To'rqa – Katon nomli matodan tikilgan qimmatbaho kiyim.

F

Farisa – f. 3. To'n adipi, to'n astariga qiyiq qilib tikilgan tutiq, paroviz.

Fo'ta – 1. Ipak o'ramabelbog'(goho buni salla o'rnida boshga ham o'raladi); 2. Hammomda beldan pastga tutiladigan lungi.

X

Xazz – a. Ipakli mato.

Xil'at –1. Hashamatli kiyim; 2. Sarmo, umuman kiyim.

Xirqa – a. Shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimi, janda.

Ch

Chopon, chapon –To'n.

Chorpora to'n – yirtiq to'n

Chorqab – f. 3. Shohlar kiyadigan zarbaft to'n.

Sh

Shirdog' – Issiqdan saqlanish uchun kiyiladigan ustki kiyim.

Shol – 1. Yungdan to'qilgan kiyim; 2. Ro'mol, o'rama.

Shudda – a. Bog'ich (kiyimning ikki tomonini bir-biriga bog'laydigan turli rangli ip yoki ipakdan qilingan bog').

E

Etak – Kiyim etagi, o'ngiri.

Ya

Yalov, yolov –2. Qalpoqqa o'raladigan ipak lenta.

O'

O'rmak – Tuya junidan to'qilgan bir nav' mato, piyozi.

Q

Qabo – a. Erkaklarning uzun ust kiyimi(jubba ostidan kiyiladi).

Qamis –a. Ko'ylak.

Qoqim – 1. Terisi mayin va oq junli hayvon; 2. Shu hayvon terisidan tikilgan po'stin.

Qabol –a. Poshnaga o'rnatiladigan tasma, shpor bog'i (mahmiz bog'i).

H

Hulal – a. Bezakli kiyimlar, ipakli mato.

Hulla –a. Bezakli, nozik va nafis kiyim; ipakli nafis mato.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: «Ma'naviyat», 2008. 47-bet..
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Т.: ФАН, 1984.
3. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I т. Фаройибус-сиғар. –Т.: ФАН, 1959.
4. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. II т. Наводируш-шабоб. –Т., 1963.
5. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. III т. Бадоеул-васат. –Т., 1963
6. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. IV т. Фавойидул-кибар. –Т., 1963.
7. Алимаматова Ш. Ўзбек тилида фраземаларнинг компонент таҳлили. Фил. фан. номз. дисс. ... автореф. Т., 2008.
8. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. Т., 1972.
9. Дониёров Х., Санакулов У. Алишер Навоий - тилшунос олим. Т., 1990.
10. Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонида тазод санъати // Ўзбек тили ва адабиёти. № 6, 2007.
11. Ибрагимова Э. Бадиий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. № 2, 2009.
12. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.-Т.: ФАН, 1983. 164-б.
13. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Самарқанд, 1994.
14. Келдиёрова Г.С. Ўзбек бадиий нутқида антитеза. Автореф. номз. дисс. –Т., 2000.
15. Мақсуд Шайхзода. Тазод. Асарлар. IV жилд. –Т., 1972.
16. Мамажонов А. Услубий воситалар. Фарғона, 1996
17. Навоий асарлари луғати. –Т.: Ғ.Ғулом. 1972.
18. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т.: “Ўзбекистон”, 2002.
19. Поляков М. Вопросы поэтики художественной семантики. М., 1978.

20. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Т.: Қамуслар бош таҳририяти, 1992.
21. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Т.: Фан, 1974.
22. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1992.
23. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1995.
24. Шомақсудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983.
25. Шукуров И. ва б. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1984.
26. Ўтанова С. Алишер Навоий лирикасида сариқ ранг семантикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5, 2006.
27. Ўтанова С. Поэтик тасвирда либос ва ранг уйғунлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. № 1, 2006.
28. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Андижон, 2002.
29. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Т., 1997.
30. Ҳамидов З. Навоий бадий санъатлари. –Т., 2001.
31. Ҳожиаҳмедов А. Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия. Т., «Шарқ», 1998.

M U N D A R I J A

So'z boshi	3
Alisher Navoiy – badiiy so'z ustasi	5
Navoiy she'riyatida rang sememasini ifodalovchi leksik birliklar	9
Navoiy she'riyatida maqol va iboralarning uslubiy xususiyatlari	20
Navoiy g'azallarida laff va nashr san'ati	27
Navoiy she'riyatida kitobot san'ati	31
Navoiy g'azallarida tazod(antiteza)	35
Navoiy ijodida libos nomlari	42
Xulosa	50
Navoiy qo'llangan rang nomlarining lug'ati	52
Navoiy she'riyatida qo'llangan libos va mato nomlari lug'ati.....	57
Adabiyotlar ro'yxati	63